

O'zbekiston Respublikasi Qishloq va suv xo'jaligi vazirligi

Andijon qishloq xo'jalik instituti

Iqtisodiyot va boshqaruv fakulteti

Qishloq xo'jaligi xo'jaligi iqtisodiyoti va boshqaruv kafedrası

5610100-Fermer xo'jaligini boshqarish

ta'lim yo'nalishi uchun

**FERMER VA DEHQON XO'JALIKLARIDA
SHARTNOMAVIY MUNOSABATLAR**

FANIDAN

MA'RUZALAR MATNI

Andijon – 2007

Ma'ruzalar matni 5610100-Fermer xo'jaligini boshqarish ta'lim yo'nalishining 4-bosqich talabalariga 8-semestr uchun mo'ljallangan. «Fermer va dehqon xo'jaliklarida shartnomaviy munosabatlarni takomillashtirish» fanidan ma'ruzalar matni Fermer xo'jaligini boshqarish ta'lim yo'nalishining Davlat ta'lim standartlari va namunaviy fan dasturi asosida tuzilgan.

Mazkur ma'ruzalar matni Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti va boshqaruv kafedrasining katta o'qituvchisi, i.f.n. B.Z.NOSIROV tomonidan tayyorlangan.

Taqrizchilar: i.f.n., dots. A.ABDULLAEV

i.f.n. SH.ZOKIROV

Mazkur ma'ruzalar matni Andijon qishloq xo'jaligi instituti O'quv-uslubiy kengashining 2008 yil 30 avgustdagi 1-sonli yig'ilishida tasdiqlangan.

KIRISH

Bozor iqtisodiyoti sharoitida qishloq xo'jaligida fermerlar, ularga xizmat ko'rsatuvchilar, ta'mirlovchilar, mahsulotlar sotib oluvchilar va boshqa korxonalar o'rtasidagi bo'ladigan munosabatlarni tartibga soladigan huquqiy hujjat shartnoma hisoblanadi. SHartnomaning mukammal, adolatli har tomon uchun o'zaro foyda asosida tuzilishi va shu bilan birgalikda tomonlar o'z huquqlari doirasida talab qila olishlari hamda o'z majburiyatlarini so'zsiz bajarishlari muhim ahamiyatga ega. Buning uchun fermerlar bir qator huquqiy va me'yoriy xujjatlarni bilishi va ularga asoslanib ish ko'rishi lozim.

Talabalar ushbu fanni o'zlashtirish natijasida kontraktatsiya shartnomalari, moddiy-texnika resurslari yetkazib berish bo'yicha shartnomalar, xizmat ko'rsatish bo'yicha shartnomalar, mehnat shartnomalarini ko'rib chiqib, ularning muhim tarkibiy qismlari bilan tanishadilar. Bundan tashqari, qishloq xo'jalik mahsulotlari yetishtirish bo'yicha shartnomalar tuzuvchilarning burchi, shartnomalarning shartlari, shartnomaning mazmuni, shartnomaning amal qilish muddati, shartnomalar tuzishdan maqsad, tuzilgan shartnomalarni sharhlash, shartnoma tuzishdagi asosiy qoidalar, shartnomaning tuzilish payti, shartnomaning shakli, shartnoma tuziladigan joy, oferta, aktsept va majburiy shartnomalarni tuzish; shartnoma oldidan bo'ladigan nizolar, shartnomani o'zgartirish va bekor qilish asoslari, tartibi, shartnomani bekor qilish oqibatlaridan bo'ladigan noxushliklarni bilishi, uni bartaraf qilish yo'llarini o'rganadilar.

Fermer va dehqon xo'jaliklarida shartnomaviy munosabatlarni takomillashtirish
fanidan ma'ruza mavzulari hajmi

№	Ma'ruza mavzulari	Ajratilgan soat
1	SHartnoma to'g'risida umumiy qoidalar, tushunchalar va uning shartlari	2
2	Fermer xo'jaligini yuritish uchun yer uchastkasini ijaraga berish shartnomasi	2
3	Fermer xo'jaliklarida mehnat munosabatlari	2
4	Moddiy texnika resurslari yetkazib berish bo'yicha shartnomalar	2
5	Qishloq xo'jaligi korxonalari bilan xizmat ko'rsatish bo'yicha tuziladigan shartnomalariga qo'yiladigan talablar	2
6	Tayyorlov tashkilotlari bilan kontraktatsiya shartnomalari	2
7	SHartnomalarning bajarilishini monitoring qilish tartibi va umumiy javobgarlik	2
	Jami	14

1-mavzu: SHartnoma to'g'risida umumiy qoidalar, tushunchalar va uning shartlari

Reja:

1. Kirish. Fanning mohiyati va maqsadi
2. SHartnomaviy munosabatlarni tartibga soluvchi huquqiy va me'yoriy hujjatlar
3. O'zbekiston Respublikasining «Xo'jalik yurituvchi sub'ektlar faoliyatining shartnomaviy-huqukiy bazasi to'g'risida»gi Qonuni

Bozor iqtisodiyoti sharoitida qishloq xo'jaligida fermerlar, ularga xizmat ko'rsatuvchilar, ta'mirlovchilar, mahsulotlar sotib oluvchilar va boshqa korxonalar o'rtasidagi bo'ladigan munosabatlarni tartibga soladigan huquqiy hujjat shartnoma hisoblanadi. SHartnomaning mukammal, adolatli har tomon uchun o'zaro foyda asosida tuzilishi va shu bilan birgalikda tomonlar o'z huquqlari doirasida talab qila olishlari hamda o'z majburiyatlarini so'zsiz bajarishlari muhim ahamiyatga ega. Buning uchun fermerlar bir qator huquqiy va me'yoriy xujjatlarni bilishi va ularga asoslanib ish ko'rishi lozim.

Fanning maqsadi – fermer va dehqon xo'jaliklarida xo'jalik shartnomalarini tuzish va ularning ijrosini ta'minlash, qishloq xo'jaligi mahsuloti yetishtiruvchilar bilan tayyorlov, xizmat ko'rsatish tashkilotlari o'rtasida shartnomalar tuzish va ularni ro'yhatdan o'tkazish; Kontraktatsiya shartnomalari tuzish; Hozirgi kunning dolzarb vazifalaridan biri bo'lgan tomonlarning huquq va majburiyatlarini tadqiq etishdir.

Fanning asosiy vazifalari – qishloq xo'jaligi tovar ishlab chiqaruvchilarining shartnomaviy munosabatlaridan kelib chiqadigan manfaatlarini, shartnomani yetakchilik roli, shartnoma tuzishning huquqiy jihatlari nimadan iborat ekanligini o'rganish. SHartnoma tuzish tamoyillari, ularga qat'iy amal qilish, monitoring o'tkazish, bekor qilish usullarini o'rganish.

Fanning vazifasi – fermer va dehqon xo'jaliklarida tayyorlov korxonalari bilan kontraktatsiya shartnomalari, moddiy-texnika resurslari yetkazib beruvchi va xizmat ko'rsatuvchi korxonalar bilan o'zaro munosabatlari, shartnomalarning bajarilishida tomonlarning mlukiy javobgarligi, fermer xo'jaligida mehnat munosabatlarining xususiyatlarini o'rganishdan iborat.

Qishloq xo'jaligi korxonalarida shartnomaviy munosabatlar fani fermer va dehqon xo'jaliklari iqtisodi va tashkiliy asoslari, qishloq xo'jaligida rejalashtirish va istiqbollash, qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishini tashkil etish, xo'jalik faoliyati tahlili, qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishini boshqarish, qishloq xo'jaligi huquqi, mikroiqtisodiyot, statistika, korxona faoliyatini tashkil etish va rejalashtirish, buxgalteriya hisobi fanlari bilan o'zaro aloqada o'rganiladi.

Fermer va dehqon xo'jaliklarida shartnomaviy munosabatlarni takomillashtirish fani Fermer xo'jaligini boshqarish ta'lim yo'nalishining talabalariga mo'ljallangan bo'lib, u umummutaxassislik fanlari tarkibiga kiradi. Ushbu fanni o'qitishdan asosiy maqsad bo'lgusi iqtisodchi kadrlarda shartnomaviy munosabatlar bo'yicha nazariy va amaliy tushunchalarni xosil qilishdir.

Fermer va dehqon xo'jaliklarida shartnomalarini tuzish va ularning bajarilishini ta'minlashni o'rgatishdan iborat. SHartnoma deganda ikki yoki bir necha shaxsning kelishuvi tushuniladi. Ushbu kelishuvga muvofiq shartnoma tuzgan shaxslar (taraflar)ning huquq va majburiyatlari vujudga keladi, o'zgaradi yoxud bekor bo'ladi. SHartnomada belgilanadigan huquq va majburiyatlar bir–biri bilan bog'liqdir, chunki bir tarafning xuquqi ikkinchi tarafning majburiyatini vujudga keltiradi.

Talabalar fanni o'zlashtirishi natijasida kuyidagilarni bilishlari va amaliyotda qo'llay olishlari kerak:

- kontraktatsiya shartnomalari;
- moddiy-texnika resurslari yetkazib berish bo'yicha shartnomalar;
- xizmat ko'rsatish bo'yicha shartnomalar.
- mehnat shartnomalari;
- qishloq xo'jalik mahsulotlari yetishtirish bo'yicha shartnomalar tuzuvchilarning burchi;
- shartnomalarning shartlari, shartnomaning mazmuni, shartnomaning amal qilish muddati, shartnomalar tuzishdan maqsad, tuzilgan shartnomalarni sharhlash, shartnoma tuzishdagi asosiy qoidalar, shartnomaning tuzilish payti, shartnomaning shakli, shartnoma tuziladigan joy, oferta, aktsept va majburiy shartnomalarni tuzish
- shartnoma oldidan bo'ladigan nizolar, shartnomani o'zgartirish va bekor

qilish asoslari, tartibi, shartnomani bekor qilish oqibatlaridan bo'ladigan noxushliklarni bilishi, uni bartaraf qilish yo'llari.

Fermer va dehqon xo'jaliklarida shartnomaviy munosabatlarni takomillashtirish fanini o'rganish talabalarni boshqa iqtisodiy fanlar to'g'risidagi bilimlari bilan bevosita bog'liqdir. Ular jumlasiga Fermer xo'jaligi iqtisodiyoti, Fermer xo'jaliklarida ishlab chiqarishni tashkil etish, Biznes-reja, Agrar sohadagi yangi qonunlar, Qishloq xo'jaligi infratuzilmasi, iqtisodiy isloxoatlarni chuqurlashtirishning asosiy yo'nalishlari va shu kabi boshqa bir qator fanlar kiradi.

Amaldagi shartnomalarni huquqiy jihatdan to'g'ri tuzish uchun quyidagi huquqiy va me'yoriy hujjatlar siz uchun dasturamal bo'ladi:

-Fuqarolik kodeksi;

-«Fermer xo'jaligi to'g'risida» gi Qonun;

-«Xo'jalik yurituvchi sub'ektlar faoliyatining shartnomaviy huquqiy bazasi to'g'risida»gi Qonun;

-«Qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishida shartnomaviy munosabatlarnitakomillashtirish va majburiyatlarning bajarilishi uchun tomonlarning javobgarligirni oshirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi Vazirlar Maxkamasining Qarori (2003 yil 4sentyabr 383-son).

Xozirda barcha turdagi shartnomaviy munosabatlar yuqorida keltirilgan Vazirlar Maxkamasining 2003 yil 4 sentyabrdagi 383-sonli qarori bilan tasdiqlangan «Qishloq xo'jaligi mahsulotlari yetishtiruvchilar bilan tayyorlov, xizmat ko'rsatish tashkilotlari o'rtasidagi shartnomalar tuzish, ularni ro'yxatdan o'tkazish, bajarish, shuningdek, ularning bajarilishi monitoringini olib borish tartibi to'g'risidagi NIZOM» asosida tartibga solinadi.

O'zbekiston Respublikasining «Xo'jalik yurituvchi sub'ektlar faoliyatining shartnomaviy-huqukiy bazasi to'g'risida»gi Qonuni 29.08.1998 da qabul qilingan. Mazkur qonun umumiqtisodiy qonunlar toifasiga kirib, qishloq xo'jaligida emas, iqtisodiyotning barcha sohalarida shartnomaviy munosabatlarni tartibga solish uchun vosita sifatida qo'llanmoqda. Bu qonun 36 ta moddadan iborat bo'lib, quyidagi 5 ta bo'limdan iborat:

I. Umumiy qoidalar (1-9 moddalar)

II. Xo'jalik shartnomasini tuzish, bajarish, o'zgartirish va bekor qilish tartibi (10-16 moddalar)

III. Xo'jalik shartnomasi bo'yicha talabnomalar va da'volar bildirish (17-19 moddalar)

IV. SHartnomaviy munosabatlarni huquqiy jihatdan ta'minlanishini tashkil etish. Xo'jalik shartnomalari to'g'risidagi qonun hujjatlariga rioya etilishini nazorat qilish (20-23 moddalar)

V. SHartnoma majburiyatlarini buzganlik uchun javobgarlik (24-36 moddalar)

Ushbu Qonunning maqsadi xo'jalik yurituvchi sub'ektlar o'rtasida xo'jalik

shartnomalarini tuzish, bajarish, o'zgartirish va bekor qilish vaqtida yuzaga keladigan munosabatlarni tartibga solishdan iborat.

Ushbu Qonun xo'jalik shartnomalarini tuzish, bajarish, o'zgartirish va bekor qilishning huquqiy asoslarini, xo'jalik yurituvchi sub'ektlarning huquqi va majburiyatlarini, shuningdek mahalliy davlat hokimiyati organlarining va davlat boshqaruv organlarining shartnoma munosabatlari sohasidagi vakolatlarini belgilaydi.

Taraflardan biri shartlashilgan muddatda tadbirkorlik faoliyati sohasida tovarlarni berish, ishlarni bajarish yoki xizmatlar ko'rsatish majburiyatini oladigan, ikkinchi taraf esa tovarlarni, ishlarni, xizmatlarni qabul qilib olish va ularning haqini to'lash majburiyatini oladigan kelishuv xo'jalik shartnomasi deyiladi.

Tadbirkorlik faoliyati sohasidagi shartnomaviy munosabatlarning asosiy printsiplari quyidagilardan iborat:

- xo'jalik shartnomalarini tuzishning erkinligi;

- taraflarning o'zaro manfaatdorligi;

- shartnoma intizomiga rioya etish;

- taraflarning o'zaro mulkiy javobgarligi.

Xo'jalik shartnomasi taraflari:

- xo'jalik shartnomalari to'g'risidagi qonun hujjatlarining talablariga rioya etishlari;

- qonun hujjatlarida nazarda tutilgan hollarda xo'jalik shartnomalarining o'z vaqtida tuzilishini ta'minlash;

- tuzilgan xo'jalik shartnomalari bo'yicha zimmalariga olingan majburiyatlarni o'z vaqtida va tegishli tartibda bajarishlari shart. Xo'jalik shartnomasi taraflari qonun hujjatlarida va shartnomada nazarda tutilgan boshqa majburiyatlarga ham ega bo'ladi.

- Davlat boshqaruv organlari o'z vakolatlari doirasida:

- xo'jalik shartnomalarini tuzishda yordam ko'rsatadi;

- xo'jalik shartnomalari hamda ularni bajarishning ahvoli to'g'risidagi statistika ma'lumotlarini umumlashtiradi;

- qonun hujjatlarida nazarda tutilgan hollarda xo'jalik shartnomalarining bajarilish jarayonini nazorat qilib turadi;

- xo'jalik yurituvchi sub'ektlar yuridik xizmatlarining ishini tashkil etishga, yuridik maslahatchilarning malakasini oshirishga ko'maklashadi;

- xo'jalik shartnomasini tuzish, bajarish, o'zgartirish va bekor qilish jarayonida qonun hujjatlarining buzilishiga yo'l qo'yilganligi fakti aniqlangan taqdirda, aybdor shaxslarni belgilangan tartibda javobgarlikka tortish masalasini qo'yadi

Xo'jalik shartnomasi shartnoma predmetini yetkazib beriladigan tovarning (ishning, xizmatning) miqdori, sifati, assortimenti va bahosini, shartnomaning bajarilish muddatlarini, hisob-kitob qilish tartibini, taraflarning majburiyatlarini, shartnoma majburiyatlari bajarilmaganda yoki lozim darajada bajarilmaganda

tafaflarning javobgarligini, nizolarni hal etish tartibini hamda tafaflarning rekvizitlarini, shartnoma tuzilgan sana va joyni, shuningdek bunday turdagi shartnomalar uchun qonun hujjatlarida belgilangan yoki tafaflardan birining arizasiga ko'ra o'zaro kelishuvga erishish lozim bo'lgan boshqa muhim shartlarni nazarda tutishi kerak.

Xo'jalik shartnomasida hisob-kitob qilish tartibi belgilanayotganda tovarlar (ishlar, xizmatlar) haqini qonun hujjatlarida belgilanganidan kam bo'lmagan miqdorda oldindan to'lab qo'yish albatta nazarda tutilgan bo'lishi kerak.

Xo'jalik shartnomasini tuzishda tafaflar tegishli turdagi shartnomalar uchun ishlab chiqilgan hamda huquqiy ekspertizadan belgilangan tartibda o'tkazilganidan so'ng e'lon qilingan o'zlarining namunaviy yoki tipovoy shartlariga (shakllariga) amal qilishlari mumkin.

Kontraktatsiya shartnomasi qishloq xo'jaligi mahsulotini yetishtiruvchi joylashgan yerda tuziladi. Kontraktatsiya shartnomasida boshqa talablar bilan bir qatorda yetkazib berilayotgan qishloq xo'jaligi mahsuloti uchun qonun hujjatlarida nazarda tutilganidan kam bo'lmagan miqdorda avans to'lovlari nazarda tutilgan bo'lishi lozim.

Xo'jalik shartnomasi, qoida tariqasida tafaflardan birining oferta (shartnoma tuzish haqida taklif) yo'llashi va ikkinchi taraf uni aktseptlashi (taklifni qabul qilishi) yo'li bilan tuziladi.

Agar tafaflar o'rtasida shartnomaning barcha muhim shartlari bo'yicha kelishuvga erishilgan bo'lsa, xo'jalik shartnomasi tuzilgan deb hisoblanadi.

Xo'jalik shartnomasi tuzilgan paytidan boshlab kuchga kiradi va tafaflar uchun majburiy bo'lib qoladi.

Tafaflar o'zlari tuzgan xo'jalik shartnomasining shartlarini ularning shartnoma tuzilishidan oldin vujudga kelgan munosabatlariga nisbatan qo'llaniladi deb belgilab qo'yishga haqlidirlar.

Xo'jalik shartnomasining amal qilish muddati tugashi tafaflarni uni buzganlik uchun javobgarlikdan ozod etmaydi.

Xo'jalik shartnomasi shartnoma shartlariga hamda qonun hujjatlarining talablariga muvofiq ravishda, bunday shartlar va talablar bo'lmagan hollarda esa ish muomalasi odatlariga muvofiq bajarilishi lozim.

Xo'jalik shartnomasining bajarilishi neustoyka, garov, qarzdorning mol-mulkini ushlab qolish, kafillik, kafolat, zakalat hamda qonun hujjatlari yoki shartnomada nazarda tutilgan boshqacha usullar bilan ta'minlanishi mumkin.

Agar qonun hujjatlarida yoki shartnomada boshqacha tartib nazarda tutilgan bo'lmasa, xo'jalik shartnomasi tafaflarning kelishuviga muvofiq o'zgartirilishi va bekor qilinishi mumkin.

Xo'jalik shartnomasi qanday shaklda tuzilgan bo'lsa, tafaflarning uni o'zgartirish yoki bekor qilish to'g'risidagi kelishuvi ham shunday shaklda amalga oshiriladi.

Xo'jalik shartnomasini bajarishdan bir tafaflama bosh tortishga yoki xo'jalik shartnomasining shartlarini bir tafaflama o'zgartirishga yo'l qo'yilmaydi, qonun

hujjatlarida yoki shartnomada nazarda tutilgan hollar bundan mustasno.

Taraflardan birining talabi bilan xo'jalik shartnomasi xo'jalik sudining qaroriga binoan faqat ikkinchi taraf xo'jalik shartnomasini jiddiy ravishda buzgan yoxud qonunda yoki shartnomada nazarda tutilgan boshqa hollarda o'zgartirilishi yoki bekor qilinishi mumkin.

Taraflardan birining xo'jalik shartnomasini buzishi ikkinchi tarafga u xo'jalik shartnomasi tuzishda umid qilishga haqli bo'lgan narsadan ko'p darajada mahrum bo'ladigan qilib zarar yetkazishi xo'jalik shartnomasini jiddiy buzish hisoblanadi.

Bir taraf shartnomani o'zgartirish yoki bekor qilish haqidagi taklifga ikkinchi tarafdin rad javobi olganidan keyingina yoki taklifda ko'rsatilgan yoxud qonunda yoki shartnomada belgilangan muddatda, bunday muddat bo'lmaganida esa o'ttiz kunlik muddatda javob olmaganidan keyin, xo'jalik shartnomasini o'zgartirish yoki bekor qilish to'g'risidagi talabni sudga taqdim etishi mumkin.

Xo'jalik shartnomalarini tuzish, bajarish, o'zgartirish va bekor qilish vaqtida taraflar o'rtasida kelib chiqadigan nizolar, shuningdek yetkazilgan zararni qoplash to'g'risidagi nizolar qonun hujjatlari belgilangan tartibda xo'jalik sudi tomonidan, shartnomada nazarda tutilgan hollarda yoki taraflarning kelishuviga binoan - hakamalar sudi tomonidan ko'rib chiqiladi.

Nazorat va takrorlash uchun savollar:

- 1. Fermer va dehqon xo'jaliklarida shartnomaviy munosabatlarni takomillashtirish fanining maqsadi va vazifalari nimadan iborat?*
- 2. SHartnomaviy munosabatlar qaysi sohalarida amal qiladi?*
- 3. SHartnomaviy munosabatlarni tartibga soluvchi huquqiy va me'yoriy hujjatlarni sanab bering.*
- 4. Xo'jalik yurituvchi sub'ektlar faoliyatining shartnomaviy-huqukiy bazasi to'g'risidagi qonunning vazifalari.*
- 5. Vazirlar Mahkamasining qarori 2003 yil 4 sentyabrdagi 383-son qarorida nimalar ko'rsatilgan?*

2-mavzu: FERMER XO'JALIGINI YURITISH UCHUN yer UCHASTKASINI IJARAGA BERISH SHARTNOMASI

Reja:

1. yer Kodeksida yerdan foydalanish tamoyillari
2. yer uchastkasini ijaraga berish shartnomasida fermerning huquq va majburiyatlari
3. yer uchastkasini ijaraga berish shartnomasida tuman hokimligining huquq va majburiyatlari

Fermer xo'jaligining yer bilan bo'ladigan barcha munosabatlarida qo'llanadigan printsiplar yer Kodeksida aniq ko'rsatib berilgan.

Er Kodeksining asosiy printsiplar quyidagilardir:

- eng muhim tabiiy resurs, qishloq xo'jaligining asosi tariqasida yer fondini asrash, tuproq sifatini yaxshilash hamda uning unumdorligini oshirish;
- yerlardan oqilona samarali va belgilangan maqsadda foydalanishni ta'minlash ;
- qishloq xo'jaligi uchun mo'ljallangan yerlarning, eng avvalo, sug'oriladigan yerlarning alohida muhoaza etilishini, kengaytirib borishning hamda ulardan qat'iy belgilangan maqsadda foydalanishni ta'minlash;
- qishloq xo'jaligi yerlarining unumdorligini oshirish, yerlarning meliorativ holatini yaxshilash hamda yerlarni muhofaza qilish tadbirlarini amalga oshirishni davlat yo'li bilan va boshqa tarzda qo'llab-quvvatlash;
- yerga va tabiiy muhitga zarar yetkazilishining oldini olish, ekologik xavfsizlikni ta'minlash;
- yerga egalik qilish va undan foydalanish shakllarining xilma-xilligi, yer munosabatlari ishtirokchilarining teng huquqliligini ta'minlash hamda ularning qonuniy huquq va manfaatlarini himoya etish;
- yerdan foydalanganlik uchun haq to'lash;
- yerlarning holati haqidagi axborotning to'liq bo'lishini hamda undan erkin foydalanishga yo'l qo'yilishini ta'minlash.

Fermer o'z faoliyatida yer Kodeksi moddalaridan foydalanish mexanizmlari yoki sharhlari yoritilgan me'yoriy hujjatlar to'plamidan foydalanishi maqsadga muvofiq. Bu hujjatlar u yoki bu moddadan hayotda qanday qilib foydalanishning qoida va tartiblarini belgilaydi. Ular Vazirlar Mahkamasining qarori bilan tasdiqlanadi yoki O'zbekiston Adliya vazirligida ro'yxatdan o'tadi.

Masalan, yer Kodeksida fermer xo'jaligini yuritish uchun yer uchaatkalari berish degan modda mavjud. Bu moddani hayotga tatbiq etish uchun O'zbekiston Vazirlar Mahkamasining 2004 yil 30 oktyabrdagi 476-sonli qarori tasdiqlangan «Er uchastkalarini fermer xo'jaliklariga uzoq muddatli ijaraga berish tartibi to'g'risidagi Nizom» va «Er uchastkasi fermer xo'jaligi tomonidan uzoq muddatli ijaraga olinishining namunaviy shartnomasi» me'yoriy hujjatlaridan foydalaniladi. Chunki yer Kodeksida yer uchastkalarini berishning asosiy qoidalari yoritilgan bo'lsa, ushbu me'yoriy hujjatlarda qaysi yer uchastkalari (konturlar bo'yicha), qancha muddatga (kodeksda 30 yildan kam bo'lmagan, 50 yilgacha deyilgan) ekanligi aniq yoziladi va yerga bo'lgan egalik davlat guvohnomasi berilib, fermerning huquq va majburiyatlari aniq belgilanadi.

Er uchastkalari fermer xo'jaliklariga tanlov asosida ijaraga berilib, ijara muddati qonun hujjatlariga muvofiq belgilanadi. Fermer xo'jaliklariga quyidagi yerlardan ijaraga beriladi:

- zahira yerlaridan;
- yuridik va jismoniy shaxslarga berilmagan berilmagan qishloq xo'jaligi yerlaridan;
- qayta tashkil etilayotgan va tugatilayotgan shirkat xo'jaliklari hamda

boshqa qishloq xo'jaligi korxonalari va tashkilotlari yerlaridan beriladi.

Ilmiy-tadqiqot muassasalariga, oliy o'quv yurtlariga, akademik litseylarga, kasb-hunar kollejlari va umumta'lim maktablariga, o'quv-tajriba, nav sinash maqsadlari uchun berilgan yerlar hamda suv fondi yerlari fermer fermer xo'jaliklariga berilmaydi.

CHovarchilik mahsulotlari yetishtirishga ixtisoslashgan fermer xo'jaligi xo'jalikning biznes-rejasida nazarda tutilgan kamida 30 shartli bosh chorva mollari boqish shartlari bilan tashkil etiladi.

Taraflarning huquq va majburiyatlari. Fermer xo'jaligini yuritish uchun yer uchastkalarini berishda tanlov o'tkazish tartibi to'g'risidagi NIZOM. yer uchastkalarini fermer xo'jaliklariga uzoq muddatli ijaraga berish tartibi to'g'risidagi NIZOM.

Er ijara shartnomasini tuzish, ro'yhatdan o'tkazish tartibi va bekor qilish asoslari. Qonun hujjatlariga muvofiq mahsulot yetishtiruvchi, tayyorlov va xizmat ko'rsatuvchining mulkiy javobgarligi

Fermer xo'jaligini yuritish uchun yer uchastkasini uzoq muddatli ijaraga berish shartnomasi ikki tomon roziligi bilan tuziladi. Taraflarning huquq va majburiyatlari shartnomada asosiy o'rinni egallaydi, chunki shartnoma bo'yicha har bir tarafning huquq va majburiyatlarini amalga oshirilishi va shartnomani bajarish.

Fermer xo'jaliklarini tashkil etishda yerdan foydalanish albatta shartnoma munosabatlari orqali amalga oshiriladi. Fermer xo'jaliklarini tashkil etishda yerdan foydalanish ijara shartnomalari alohida ahamiyatga ega. Ushbu faoliyat yuzasidan tegishli huquqlarini beruvchi yer kadastr qo'mitasining vazifalari, ular tomonidan yerdan foydalanish bo'yicha beriladigan dalolatnomalarda yerdan foydalanish muddati, yerni joylashishi, konturlar soni, tuproq bonitet bali hamda boshqa afzalliklariga ko'ra shartnoma tuzish tartiblari va maqsadsiz foydalanish oqibatlari o'z aksini topgan.

Fermer xo'jaligi yuritish uchun yer uchastkalarini amaldagi qonunlarga binoan 50 yilgacha, ammo 30 yildan kam bo'magan muddatga ijaraga olinadi.

Fermer xo'jaligi tomonidan yer uchastkasini uzoq muddatga ijaraga olish SHARTNOMASI

200_yil «__»_____

(shartnoma tuzilgan joy)

_____ viloyati _____ tumani hokimligi
hokim _____ orqali, keyingi o'rinlarda
«Ijaraga beruvchi» deb ataladi, bir tomondan va

(fermer xo'jaligining nomi)

orqali keyingi o'rinlarda «Ijaraga oluvchi» deb ataladi, ikkinchi tomondan 200_yil «__»__dagi ____-son qaror asosida ushbu SHartnomani quyidagilar to'g'risida tuzishdi:

I. SHartnomaning mavzusi

1. Ijaraga beruvchi 200_yil «__»__dan ____ yil muddatga ____ da joylashgan ____ gektar yer uchastkasini ijaraga topshiradi, Ijaraga oluvchi esa qabul qilib oladi.

Ijaraga oluvchining yer uchastkasi chegaralari mazkur SHartnomaning ajralmas qismi hisoblanadigan ilova qilinayotgan haritada ko'rsatilgan.

2. yer uchastkasi ____ qishloq xo'jaligi
(ixtisoslashuvi)

ishlab chiqarishini yuritish uchun beriladi.

3. Ko'rsatilgan yer uchastkasida quyidagi qishloq xo'jaligi yerlari joylashgan:

sug'oriladigan haydaladigan yerlar ____ ga;

sug'orilmaydigan (lalmikor) haydaladigan yerlar ____ ga;

bog'lar ____ ga;

uzumzorlar ____ ga;

tutzorlar ____ ga;

boshqa ko'p yillik daraxtlar ____ ga;

pichanzorlar va yaylovlar ____ ga;

bo'z yerlar ____ ga;

suv osti yerlari ____ ga.

Erlarning tarkibi va maydoni to'grisidagi batafsil ma'lumotlar mazkur SHartnomaning ajralmas qismi hisoblanadigan yerlarning ilova qilinayotgan izohlarida keltirilgan.

4. Ijaraga beriladigan sug'oriladigan yerlarning tavsifi:

suv bilan ta'minlanganligi ____ %;

sug'orib kelinayotgan muddati ____;

madaniylashganligi ____;

eroziyaga uchraganlik darajasi ____;

toshloqlik darajasi ____;

sho'rlanish darajasi ____;

sizot suvlarining joylashish chuqurligi ____;

tuproq bonitetining o'rtacha o'lchangan bali ____.

5. yer uchastkasining kuchsizlanganligi ____

6. Servitutlar ____

II. Ijara haqi

7. yer uchun ijara haqi yagona yer solig'i tarzida, qonun hujjatlarida belgilangan stavkalar bo'yicha va muddatlarda to'lanadi.

8. Yagona yer solig'ini o'z vaqtida to'lamaganlik uchun qonun hujjatlarida belgilangan tartibda penya undiriladi.

III. yer uchastkasini berish va undan foydalanish shartlari

9. yer uchastkasidan ushbu SHartnomaning 2-bandida ko'rsatilgan maqsadlarda belgilangan almashlab ekishlarga muvofiq foydalanilishi kerak.

10. Ichki xo'jalik ob'ektlarini qurishda va keng tarqalgan foydali qazilmalarni qazib olishda Ijaraga oluvchi tomonidan buzilgan yer uchastkalari Ijaraga oluvchining kuchi bilan va uning mablag'lari hisobiga qayta madaniylashtiriladi.

11. yer uchastkasini berish va undan foydalanishning boshqa shartlari

Ijaraga oluvchi tomonidan yer maydonlarining unumdorligini pasayishiga, suv tarmoqlarini tozalamaslikka, meliorativ holatining yomonlashuviga yo'l qo'yilsa, Ijaraga beruvchi tomonidan tuzilgan ushbu shartnoma bekor qilinadi.

IV. Ijaraga beruvchining huquq va majburiyatlari

12. Ijaraga beruvchi belgilangan tartibda quyidagi huquqlarga ega:

Ijaraga oluvchi tomonidan SHartnoma shartlari buzilganda yohud yer uchastkasini yoki uning bir qismini davlat va jamoat ehtiyojlari uchun olib qo'yish zarur bo'lganda ushbu SHartnomani o'zgartirishni yoki bekor qilishni talab qilish;

er uchastkasining kuchsizlanganligi darajasini aniqlash;

Ijaraga beruvchining boshqa huquqlari _____

13. Ijaraga beruvchi quyidagilarga majbur:

ijaraga olingan yer uchastkasining belgilangan muddatlarda, SHartnoma shartlariga muvofiq holatda berilishini ta'minlash;

erlar davlat va jamoat ehtiyojlari uchun olib qo'yilgan taqdirda Ijaraga oluvchining ko'rgan zararlarini, shu jumladan boy berilgan foydasini to'lash;

qishloq xo'jaligi ekinlari va daraxtlarni sug'orish uchun ajratilgan limitlarga muvofiq suv berilishini ta'minlash;

Ijaraga oluvchining qonun hujjatlarida belgilangan huquqlariga rioya qilish.

Ijaraga oluvchining boshqa majburiyatlari _____

V. Ijaraga oluvchining huquq va majburiyatlari

14. Ijaraga oluvchi quyidagi huquqlarga ega:

er uchastkasida undan foydalanish maqsadiga hamda xo'jalik utaviga muvofiq mustaqil ravishda xo'jalik yuritish;

qishloq xo'jaligi ekinlari va daraxt ko'chatlariga, yetishtirilgan qishloq xo'jaligi mahsulotiga va uni sotishdan olingan daromadlarga egalik qilish;

er uchastkasida mavjud bo'lgan keng tarqalgan foydali qazilmalar, o'rmonzorlar, suv ob'ektlaridan xo'jalik ehtiyojlari uchun belgilangan tartibda foydalanish, shuningdek yerlarning boshqa foydali xossalarini ishga solish;

sug'orish, yerlarning zaxini qochirish, texnik va boshqa meliorativ ishlarni belgilangan tartibda amalga oshirish;

qishloq xo'jaligi ekinlarini, daraxtlarni sug'orish va boshqa maqsadlar uchun sug'orish manbalaridan limitlarga muvofiq suv olish;

ichki xo'jalik maqsadlari uchun ishlab chiqarish hamda boshqa imoratlar va inshootlarni belgilangan tartibda barpo etish;

erlar olib qo'yilgan taqdirda o'ziga yetkazilgan zararlarni, shu jumladan boy berilgan foydani to'latish.

Ijaraga oluvchi «Fermer xo'jaligi to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasi qonunida va boshqa qonun hujjatlarida nazarda tutilgan boshqa huquqlarga ham egadir.

15. Ijaraga oluvchi quyidagilarga majbur:

er uchastkasining ixtisoslashuvini mazkur SHartnomaning 2-bandiga muvofiq saqlash;

davlat ehtiyojlari uchun harid qilinadigan mahsulot yetishtirilishini tashkil etish (ixtisoslashuvini hisobga olgan holda);

erdan uning belgilangan maqsadiga muvofiq oqilona foydalanish, tuproq unumdorligini oshirish, ishlab chiqarishning tabiatni muhofaza qiluvchi texnologiyalarini qo'llash, o'z xo'jalik faoliyati natijasida hududdagi ekologik vaziyatning yomonlashuviga yo'l qo'ymaslik. Fermer xo'jaligiga ijaraga berilgan qishloq xo'jaligi yerlari, shuningdek ekinlaridan qishloq xo'jaligi ekinlari shartnomasida nazarda tutilmagan boshqa maqsadlarda foydalanilishi amaldagi qonun hujjatlarida nazarda tutilgan barcha kelib chiqadigan oqibatlari bilan birgalikda ijara shartnomasining qo'pol ravishda buzilishi hisoblanadi:

ishlayotgan irrigatsiya va meliorativ tarmoqlarni, muhandislik kommunikatsiyalarini soz holatda saqlash;

erlarni muhofaza qilish bo'yicha qonun hujjatlarida nazarda tutilgan kompleks tadbirlarni amalga oshirish;

yagona yer solig'ini o'z vaqtida to'lash;

boshqa yer egalari, yerdan foydalanuvchilar, yerni ijaraga oluvchilar va yer uchastkalari mulkdorlari huquqlarini buzmaslik;

belgilangan shakldagi hisobotlarni o'z vaqtida taqdim etish;

boshqa yer egalari, yerdan foydalanuvchilarga, yerni ijaraga oluvchilarga va yer uchastkalari mulkdorlariga yetkazilgan zararlarni belgilangan tartibda to'lash;

qishloq xo'jaligi ekinlari hosildorligini (uch yil mobaynidagi o'rtacha yillik hisobda) yerlarning nomativdagi kadastr bahosidan past bo'lmagan darajada bo'lishini ta'minlash;

arxitektura-shaharsozlik normalari va talablariga rioya etish, shu jumladan qurilishga ruxsat olish va loyihani arxitektura organlari bilan kelishish.

Ijaraga oluvchi «Fermer xo'jaligi to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasi qonunida va boshqa qonun hujjatlarida nazarda tutilgan boshqa majburiyatlarga ham egadir.

VI. yer uchastkasini ijaraga berish shartnomasini o'zgartirish va bekor qilish

16. Ushbu SHartnoma tomonlarning kelishuviga ko'ra, tomonlarning kelishuviga erishilmagan taqdirda esa, sud qaroriga ko'ra o'zgartirilishi yoki bekor qilinishi mumkin.

17. Ushbu SHartnoma quyidagi hollarda:

fermer xo'jaligi tugatilganda, shu jumladan bankrotlik to'g'risidagi qonun hujjatlariga muvofiq u iqtisodiy nochor bo'lgan taqdirda tugatilganda;
er uchastkasini ijaraga olish huquqidan ixtiyoriy ravishda voz kechilganda;
erdan belgilangan maqsadda foydalanilmaganda, shu jumladan davlat ehtiyojlari uchun kontraktatsiya shartnomasida nazarda tutilmagan qishloq xo'jaligi ekinlari ekilganda;

samarasiz foydalanilganda, ya'ni ijaraga oluvchining aybi bilan muntazam ravishda (uch yil mobaynida) nomativdagi kadastr bahosidan kam miqdorda hosil olinganda;

erlarning ekologik holati Ijaraga oluvchining aybi bilan yomonlashganda;
er uchastkasi davlat va jamoat ehtiyojlari uchun belgilangan tartibda olib qo'yilganda;

agar fermer xo'jaligi yer uchastkasi olingan paytdan boshlab bir yil mobaynida ishlab chiqarish-xo'jalik faoliyatiga kirishmasa, SHartnoma bekor qilinishi mumkin.

SHartnoma amaldagi qonunda nazarda tutilgan boshqa hollarda ham bekor qilinishi mumkin.

VII. Tomonlarning javobgarligi

18. Tomonlardan biri ushbu SHartnomaning shartlarini bajarmaganda yoki qonun hujjatlarini muntazam buzganda ikkinchi tomon ushbu SHartnomannig belgilangan tartibda bekor qilinishini talab qilishga haqlidir.

19. Bartaraf etilishi mumkin bo'lgan har qanday qonun buzilishi SHartnomaning bekor qilinishiga sabab bo'lmaydi.

20. Tomonlardan biri SHartnomani bekor qilish mo'ljali to'g'risida ikkinchi tomonni SHartnoma bekor qilinishi sabablarini asoslagan holda mo'ljallanayotgan bekor qilish sanasidan uch oy oldin yozma ravishda xabardor qiladi.

VIII. Nizolarni hal etish

21. Ushbu SHartnomani amalga oshirishda paydo bo'ladigan nizolar amaldagi qonun hujjatlariga muvofiq hal etiladi.

IX. SHartnomaning alohida shartlari

22. yerga ishlov berish, ekinlarni parvarishlash, agrotexnika talablarini surunkali buzish, muddatlarga rioya qilmaslik, ixtisoslashuvdan boshqa ekinlarni eksa, ushbu shartnomani ijaraga beruvchi tomonidan bekor qilinishiga asos bo'ladi.

23. Fermer xo'jaligi hududidagi tut va boshqa ko'p yillik daraxtlarni to'laligicha saqlash, qishloqni obodonlashtirish ishlariga amaliy yordam berib boradi.

X. YAkuniy qoidalar

Ushbu shartnoma ikki nusxada tuzilgan, ulardan birinchisi Ijaraga oluvchiga _____ berilgan, ikkinchisi _____ tumaninnig yer resurslari va davlat kadastr bo'limida saqlanadi.

SHartnoma yer uchastkasi joylashgan joydagi tuman yer resurslari va davlat kadastr bo'limida ro'yhatdan o'tkazilgan kundanboshlab kuchga kiradi.

Tomonlarning yuridik manzillari:

Ijaraga beruvchi:

Ijaraga oluvchi:

Tomonlarning imzolari:

Ijaraga beruvchi:

Ijaraga oluvchi:

_____ tumani hokimi

Imzo: _____
M.O'. _____

Imzo: _____
M.O'. _____

SHartnoma 200_yil «__» _____ da _____-son tartib raqami bilan _____ viloyati _____ tumani yer resurslari va davlat kadastr bo'limida ro'yhatdan o'tkazilgan.

M.O'. _____
(imzo)

(familiyasi va ismi)

Nazorat va takrorlash uchun savollar:

1. Fermer xo'jaligi yerdan qanday tartibda foydalanadi?

2. *Fermer xo'jaligini yuritish uchun yer uchastkalarini berishda tanlov qanday tartibda o'tkaziadi?*
3. *yer uchastkasini ijaraga berish shartnomasini o'zgartirish va bekor qilish tartibi qanday?*
4. *yerni ijaraga oluvchining qanday huquq va majburiyatlari mavjud?*
5. *yerni ijaraga beruvchining qanday huquq va majburiyatlari mavjud?*
6. *Servitut deganda nimani tushunasiz?*

3-mavzu: FERMER XO'JALIGIDA MEHNAT MUNOSABATLARI

Reja:

1. Fermer xo'jaliklarida mehnat resurslaridan foydalanish.
2. Fermer xo'jaligida hodimlarni yollash to'g'risida shartnomada tomonlarning huquq va majburiyatlari
3. Fermer xo'jaligi a'zolarini ijtimoiy himoya qilish.

Insonning jismoniy va aqliy faoliyati mehnat hisoblanadi. Mehnat ongli faoliyat natijasidir. Ishlab chiqarishning samaradorligi ko'p jihatdan mehnatning holatiga bog'liq. Agarda qilinayotgan mehnat rozilik bilan, katta qoniqish bilan bajarilayotgan bo'lsa, uning unumdorligi ham yuqori bo'ladi. Har bir mamlakat aholisining mehnat qilish qobiliyatiga ega qismi, uning mehnat resurslarini tashkil etadi. O'zbekiston aholisining 51 foizga yaqini mehnat resurslarini tashkil etadi. Qishloq xo'jaligi korxonalari mehnat resurslari asosiy va yordamchi guruhlariga bo'linadi. Asosiy mehnat resurslariga 16 yoshdan 60 yoshgacha bo'lgan erkaklar kiradi. Yordamchi mehnat resurslariga 14-16 yoshdagi o'smirlar va nafaqa yoshidagi ayol va erkaklar kiradi. Ulardan asosan qishloq xo'jaligi mavsumiy davrlarida foydalaniladi.

Fermer xo'jaligida a'zolar va yollanma ishchilarning mehnat qilishi O'zbekiston Respublikasining «Mehnat kodeksi», «Fuqarolik kodeksi» va «Fermer xo'jaligi to'g'risida»gi Qonun asosida tartibga solinadi. Fermer xo'jaligida ishlovchiga ham qonunda ko'rsatilgan huquq va majburiyatlar, imtiyozlar tadbik etiladi.

Fermer xo'jaligida mehnat munosabatlarining asosiy tamoyillari quyidagilardan iborat:

Fermer xo'jaligi va uning hodimlari o'rtasidagi mehnatga oid munosabatlar qonun hujjatlariga muvofiq mehnat shartnomasi (kontrakti) bilan tartibga solinadi.

Fermer xo'jaligidagi ish tartibi xo'jalik boshlig'i tomonidan qonun hujjatlariga muvofiq belgilanadi. Fermer xo'jaligi hodimlarining mehnat faoliyati hisobini olib borish xo'jalik boshlig'i tomonidan tashkil etiladi.

Fermer xo'jaligi hodimlarining mehnatiga haq to'lash taraflarining kelishuviga ko'ra pul hamda natura tarzida qonun hujjatlarida belgilangan eng kam ish haqidan oz bo'lmagan miqdorda belgilanadi.

Fermer xo'jaligining boshlig'i va hodimlari davlat ijtimoiy sug'urtasidan o'tkaziladi. Ularga davlat ijtimoiy sug'urtasi bo'yicha nafaqalar va pensiyalar tayinlash hamda to'lash qonun hujjatlarida belgilangan tartibda va shartlar aossida amalga oshiriladi.

Fermer xo'jaligida mehnat munosabatlarining buzilishi holatlari:

-fermer a'zolariga ish haqini natura shaklida to'lab, buxgalteriya hisobotida ko'rsatmaslik;

-yollanma ishchi kuchidan shartnoma tuzmasdan foydalanish;

-hodimlarga qonun hujjatlarida ko'rsatilgan imtiyozlar (kasallik davrida ish haqi, dekret ta'tili uchun haq to'lanishi va x.k.) bermaslik kabi shakllarda yuz beradi.

Vazirlar Maxkamasining 476-sonli qarori bilan tasdiqlangan «Fermer xo'jaligida hodimlarni yollash to'g'risida Namunaviy shartnoma» keltirilgan bulib, bunday shartnoma tuzishda amaldagi shart-sharoit va xususiyatlar hisobga olinishi lozim.

Fermer xo'jaligida hodimlar va yollanma ishchilarni ishlatishda quyidagilarga e'tibor beriladi:

-fermer xo'jaligida hodimlar va yollanma ishchilarni ishlatishda mehnat shartnomasi tuzilishi shart;

-hodimlar mehnatiga haq to'lash tomonlarning kelishuviga ko'ra pul yoki natura shaklida, lekin eng kam oylik ish haqidan kam bo'lmasligi lozim;

-hodimlarga nafaqa, pensiya tayinlash va boshqa imtiyozlar to'liq berilishi lozim.

«Fermer xo'jaligi to'g'risida»gi qonunning 23-moddasi «Fermer xo'jaligida mehnat» deb nomlanadi. Ushbu moddada mehnatga jalb qilish, haq to'lash, sug'urta badallarini to'lash kabi umumiy qoidalar belgilangan. Ularni qanday rasmiylashtirish va amalga oshirish bo'yicha Mehnat Kodeksidan hamda Vazirlar Mahkamasining 2004 yil 30 oktyabrdagi 476-son qarori bilan «Fermer xo'jaligi hodimlarini yollash to'g'risidagi namunaviy shartnoma» tasdiqlangan hujjatdan foydalaniladi.

Bunda ish beruvchi (fermer) va hodimning huquq va majburiyatlari, ishning aniq ko'lami va unga to'lanadigan ish haqining turi va miqdori, ishning tartibi va boshqa kelishuvlar yoziladi hamda ikkala tomonning imzolari qo'yiladi.

Vazirlar Maxkamasining 2004 yil 30 oktyabrdagi 476-son qaroriga 9-ilova

**Fermer xo'jaligi hodimlarini yollash to'g'risida
NAMUNAVIY SHARTNOMA**

_____ tumani _____-son 200__yil _____fermer xo'jaligi
_____Ustav asosida

faoliyat ko'rsatuvchi, keyingi urinlarda «Ish beruvchi» deb yuritiladigan_____

(F.I.SH.)

orkali bir tomondan va keyingi urinlarda «Hodim» deb yuritiladigan fuqaro_____ikkinchi tomondan Ushbu shartnomani

(F.M.SH.)

quyidagilar to'g'risida tuzishdi:

1. Hodim_____mutaxassisligi bo'yicha_____
(razryad ko'rsatiladi)

lavozimiga qabul qilinadi.

2. SHartnoma_____
(asosiy ish bo'yicha, urindoshlik bo'yicha)

3. SHartnoma muddati_____
(muayyan muddatga, belgilanmagan muddatga)

4. SHartnoma bo'yicha ishning boshlanishi_____
(yil, kun, oy)

5. Hodimning majburiyatalri:

a) Uzbekiston Respublikasi qonunlariga va xo'jalik Ustavi talablariga, mehnat intizomiga rioyach qilish, mehnat majburiyatlarini bajarish;

b) mehnatni muxofazi qilish, texnika xavfsizligi va ishlab chiqarish sanitariyasi majburiyatalri;

6. Ish beruvchining majburiyatlari:

a) mehnatni tashkil eti shva Hodimning mehnatini muxofaza qilish, uni texnika favfsizligi qoidalari, mehnat majburiyatalri, jamoa shartnomasi (u qabul qilingan bo'lsa) va boshqa normativ-huquqiy hujjatlar bilan tanishdirish;

b) ish haqini belgilangan muddatlarda to'lash;

v) Hodimni meznatni muzofaza qilish qoidalari muvofiq zarur inventarlar va boshqa muxofaza vositalari bilan ta'minlash;

g) Hodimning mehnat daftarchanisi belgilangan tartibda yuritish;

d) qonun hujjatlari talablariga rioya etish.

7. Ish tartibi:

Ish vaqti tartibini fermer xo'jaligi boshlig'i qonun hujjatlarina muvofiq belgilaydi.

Bunda bir yildagi ish vaqti jami hisoblangan ish vaqtidan, har kungi ishning davom etishi esa 12 soatdan oshishi mumkin emas.

8. Mehnatga haq to'lash:

a) tomonlar belgilagan ish xajmi bajarilgan taqdirda Hodimga har oy uchun _____miqdorida mehnat haqi belgilanadi;

(aniq summa ko'rsatiladi)

b) ishlab chiqarish zaruriyati va bekor turib kolishlar sababli Hodim uning roziligisiz boshqa ishga o'tkazilishi mumkin. Bunda mehnatga haq to'lash bajarilgan ishlar bo'yicha, lekin Hodimning ilgari ish haqidan kam bo'lmagan miqdorda amalga oshiriladi;

v) ish beruvchi huquqlar va moliyaviy imkoniyatlar doirasida quyidagi qo'shimcha to'lovlarni (ustamalar, mukofotlar, rag'batlantiruvchi va boshqa to'lovlarni) belgilaydi:

(qo'shimcha to'lovlar, ustamalar, mukofotlar va boshqa to'lovlarning nomi va miqdori)

g)Hodim bilan kelishuvga ko'ra mehnatga haq to'lash ham pul, ham natura tarzida amalga oshirilishi mumkin.

9. Hodimga har yilgi asosiy mehnat ta'tili ____ ish kuni (kamida 15 ish kuni miqdorida) va _____ ish kuni miqdorida qo'shimcha mehnat ta'tili belgilanadi.

10. Hodimga nisbatan davlat ijtimoiy sug'urtasi qo'llanadi.

11. Ish beruvchi mehnat intizomi va Ushbu SHartnoma shartlari buzilganligi uchun Hodimga nisbatan Uzbekiston Respublikasi Mehnat kodeksining 182-moddasi talablarini bajargan holda qo'llanish huquqiga egadir.

Tomonlarning manzillari va imzolari:

Hodim

Ish beruvchi

Fermer xo'jaliklari oilaviy xo'jaliklar bo'lganligi sababli, ularda mehnat qilayotganlarning aksariyati oila a'zlari hisoblanadi. «Fermer xo'jaligi to'g'risida»gi qonunga muvofiq, fermer xo'jaligi boshlig'i 18 yoshga to'lgan, tegishli malaka va ish tajribasiga ega bo'lgan, muomalaga layoqatli, mazkur xo'jalik a'zolaridan biri bo'lishi mumkin. Xo'jalik faoliyatini yuritishda fermer qo'shimcha ish kuchini jalb etib, shartnoma asosida ishlaydigan ishchilar mehnatiga haq to'lash qonun hujjatlarida belgilangan eng kam ish haqidan oz bo'lmagan miqdorda, taraflarning kelishuviga binoan pul va natura shaklida amalga oshiriladi. SHu bilan birga yollanma ishchilar fermer xo'jaligi roziligi bilan pul yoki boshqa xil ulushini kiritishga ham qo'shgan ulushiga munosib ravishda xo'jalik daromadi (foyda) taqsimotida qatnashishi mumkin.

Fermer xo'jaligi a'zolari hamda shartnoma asosida ishlayotgan ishlovchilar Mehnat va aholini ijtimoiy himoya qilish vazirligi huzuridagi «Nafaqa» jamg'armasiga badallar to'lagan taqdirda, mehnat daftarchasi belgilangan tartibda rasmiylashtirilgan holda ularning ish vaqti mehnat stajiga qo'shiladi va pirovard natijada nafaqa olishlari mumkin.

Respublika qishloq xo'jaligida fermer xo'jaliklari ulushi ortishi munosabati bilan fermer xo'jaliklarida mehnatga qobiliyatli qishloq aholisining salmog'i ortib borishi kengaymoqda. Masalan, fermer xo'jaliklari soni 2003 yilda 87552 tabo'lgan bo'lsa, 2007 yilga kelib, 215 mingdan ortib ketdi. Unda ishlovchilar soni 603 ming kishidan 1,9 mln kishiga yetdi.

Nazorat va takrorlash uchun savollar:

1. Fermer xo'jaligida mehnat munosabatlari qaysi qonuniy-huquqiy hujjatlarga asosan boshqariladi?

2. *Fermer xo'jaligida hodimlarni yollash to'g'risidagi shartnomada hodimning qanday majburiyatlari ko'rsatiladi?*
3. *Hodimning qanday ijtimoiy huquqlari kafolatlanadi?*
4. *Kimlar fermer xo'jaligining boshlig'i bo'lishi mumkin?*
5. *Fermer xo'jaligida hodimning mehnatiga haq to'lash qanday amalga oshiriladi?*

4-mavzu: **Moddiy texnika resurslari yetkazib berish bo'yicha shartnomalar**

Reja:

1. Moddiy-texnika resurslari - ehtiyot qismlar, yonilg'i-moylash materiallari yetkazib berish bo'yicha shartnomalar.
2. Urug'lik, o'simliklarni himoya qilish vositalari, mineral o'g'it va boshqalar yetkazib berish bo'yicha shartnomalar.
3. SHartnomaning tarkibiy qismi hisoblanadigan jadval ilovasi.

Moddiy-texnika resurslari (ehtiyot qismlar, urug'lik, o'simliklarni himoya qilish vositalari, yonilg'i-moylash materiallari, mineral o'g'it va boshqalar) yetkazib berish yuzasidan tuzilgan shartnomalar bo'yicha yetkazib beruvchi tashkilot fermer xo'jaligiga o'zi ishlab chiqaradigan yoki xarid qiladigan moddiy-texnika resurslarini qishloq xo'jaligi mahsulotlari yetishtirishda foydalanish uchun kelishilgan muddatlarda yetkazib berish majburiyatini oladi, fermer xo'jaligi esa moddiy-texnika resurslarini qabul qilib olish va ular uchun belgilangan yoki kelishilgan narxlar bo'yicha haq to'lash majburiyati.

SHartnomaga moddiy-texnika resurslari yetkazib berish va xizmatlar ko'rsatish (ishlarni bajarish) muddatlari, miqdori va assortimentini belgilovchi, ikkala tomonning imzosi bilan tasdiqlangan hamda shartnomaning tarkibiy qismi hisoblanadigan jadval ilovasi.

Har bir fermer qishloq xo'jalik ekinini ekishi, parvarish qilishi, nes-nobud bo'lmasdan yigib-terib olishi va tayyorlov tashkilotlariga o'z vaqtida hamda sifatli holda topshirishi uchun ko'pgina moddiy resurslar yetkazib beruvchi turli xizmat ko'rsatuvchi korxonalar bilan o'zaro munosabatda bo'ladi.

Fermer xo'jaligining moddiy-texnika resurslari deganda, fermerning mavjud barcha asosiy fondlari va xo'jalik inventarlari tushuniladi. Fermer xo'jaligida texnikalar yetarli miqdorda bo'lmasa, qishloq xo'jaligi ishlari o'z agrotexnik muddatlarida bajarilmaydi. Bu o'z navbatida mahsulot ishlab chiqarish darajasining pasayishiga olib keladi. Demak, ishlab chiqarishda moddiy-texnika resurslarining ahamiyati katta.

Fermer xo'jaliklarining moddiy-texnika bazasi mustahkam bo'lsa, ularda iqtisodiy jihatdan rivojlanish yuqori bo'ladi. Fermer xo'jaligining moddiy-texnika

resurslari tabiiy va iqtisodiy resurslardan tashkil topadi. Iqtisodiy resurslar o'z navbatida moliyaviy hamda mehnat resurslariga bo'linadi.

Tayyorlov va xizmat ko'rsatuvchi korxonalari fermer xo'jaliklarini moddiy-texnika resurslari bilan o'z vaqtida ta'minlab tursa, mahsulot hajmi ortadi va fermerning to'lov qobiliyati oshadi. Agar moddiy-texnika ta'minoti o'z vaqtida amalga oshirilmasa, avval fermer xo'jaligining ish faoliyatiga, mahsulot ishlab chiqarish hajmiga, undan keladigan daromadga salbiy ta'sir etib, to'lov qobiliyatini yo'qotadi. SHuning uchun iste'molchi bilan ta'minotchi o'rtasida tuzilgan shartnomalar o'z vaqtida samarali bajarilishini ta'minlash kerak.

Bunda asosiy tamoyillar: ishonchli sherik (partner) tanlash va shartnomalarni mukammal tuzish, moddiy resurslar va xizmatlarni o'z vaqtida zarur hajm, turda va sifatda bo'lishini talab qilish va albatta ularga yetkazib berilgan mahsulot va xizmatlarga o'z vaqtida haq to'lashdan iborat bo'lishi kerak.

Demak, fermer xo'jaligining huquqlari:

-xizmat ko'rsatish tashkilotidan shartnomaga muvofiq beriladigan buyurtmanomaga binoan tegishli sifatdag, assortimentdagi mahsulotlar yetkazib berishni va xizmatlar ko'rsatishni (ishlar bajarishni) talab qilish;

-xizmat ko'rsatish tashkilotidan shartnoma shartlarini bajarmaslik yoki zarur darajada bajarmaslik natijasida yetkazilgan zarar qoplanishini talab qilish.

Tovar (ishlar, xizmatlar) unga yomon sifat bilan sotilganda xo'jalik o'z xoxishiga ko'ra:

-zarur sifatdag, ana shunday tovar (ishlar, xizmatlar)ga almashtirishni;

-tovar (ishlar, xizmatlar)ning nuksonlarini bepul bartaraf etishni yoki nuksonlarni tuzatish uchun sotib oluvchi yoxud uchinchi shaxs tomonidan qilingan harajatlarining to'lanishini;

-narxlarning mutanosib ravishda kamaytirilishini talab qilishga haqlidir.

Fermer xo'jaligining majburiyatlari:

-o'z buyurtmasiga ko'ra yetkazib berilgan moddiy-texnika resurslari va ko'rsatilgan xizmatlarni shartnomaga muvofiq qabul qilish;

-etkazib berilgan moddiy-texnika resurslari va ko'rsatilgan xizmatlar (bajarilgan ishlar) uchun to'lovni (hisob-kitoblarni) xizmat ko'rsatish tashkilotlari bilan tuzilgan shartnomalarga muvofiq o'z vaqtida amalga oshirish.

Moddiy-texnika resurslari yetkazib beruvchi va xizmat ko'rsatuvchi korxonalarning huquqlari:

-amaldagi qonun hujjatlarida belgilangan tartibda va miqdorlarda shartnomaga muvofiq yetkazib beriladigan moddiy-texnika resurslari va ko'rsatiladigan xizmatlar uchun oldindan haq to'lashni va yakuniy hisob-kitob qilishni talab qilish;

-takdim etilgan buyurtmanomaga muvofiq yetkazib berilgan moddiy texnika resurslarini va ko'rsatiladigan xizmatlarni asossiz ravishda rad etish natijasida yetkazilgan zararni qoplashni xo'jaliklardan talab qilish.

Majburiyatlari:

-xo'jaliklar bilan qonun hujjatlariga muvofiq o'z vaqtida shartnomalar tuzish va shartnoma majburiyatlarining bajarilishini ta'minlash;

-xo'jaliklarning buyurtmanomalariga binoan shartnomaga muvofiq muddatlarda, miqdorda va sifatda moddiy-texnika resurslari yetkazib berish hamda xizmatlar ko'rsatish (ishlarni bajarish);

-etkazib beriladigan moddiy-texnika resurslari, ko'rsatiladigan xizmatlar sifatining shartnomada belgilangan talablarga, shuningdek, amaldagi standartlar va normativlarga muvofiqligini ta'minlash;

-shartnomani bajarmaslik yoki zarur darajada bajarmaslik natijasida xo'jalikka yetkazilgan zararni qoplash.

SHartnoma tuzishda va uning bajarilishida quyidagi holatlarga e'tibor berish kerak:

1. Xo'jaliklarning roziligi bilan moddiy-texnika resurslari muddatidan oldin yetkazib berilishi mumkin. yetkazib berilgan va xo'jaliklar tomonidan qabul qilingan moddiy-texnika resurslariga haq to'lanadi va keyingi davrlarda yetkazib berilishi kerak bo'lgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari hisobiga o'tkaziladi.

Xo'jalik muddatlar buzilgan va zarur sifatga muvofiq bo'lmagan holda yetkazib berilgan moddiy-texnika resurslarini qabul qilishni rad etishga xaklidir.

2. Nazarda tutilgan miqdordan ortiqcha bir nomdagi tovarlar yetkazib berilishi Ushbu assortimentga kiruvchi boshqa nomdagi yetkazib berilmaydigan tovarlar urnini tuldirish sifatida karalmaydi va yetkazib bermasliklar urni tuldirilishi kerak, bunday yetkazib berishlar xo'jalikning oldindan berilgan yozma roziligi bo'yicha amalaga oshirilgan hollar bundan mustasno.

3. Erni mexanizatsiya vositasida shudgorlash bo'yicha bajarilgan ishlar va boshqa xizmatlar xo'jaliklarning bevosita mas'ul hodimlari tomonidan dalolatnoma bo'yicha qabul qilinadi.

Dalolatnomada bajarilgan ishlar (xizmatlar)miqdori, ularning sifati, shudgorlar chukukrligi va boshqa agrotexnika ko'rsatkichlari ko'rsatiladi.

4. Buyurtнома mahsulot yetkazib berishning, tegishli xizmatlar ko'rsatishning (ishlarni bajarishning) taxmin qilinayotgan sanasidankaimda besh kun oldin chopar, pochta orkali yoki boshqa tarzda beriladi. Buyurtnomani chopar orkali qabul qilishda tayyorlov va xizmat ko'rsatuvchi tashkilot hodimixo'jalikda koladigan nuusxaga sanani ko'rsatgan holda qabul qilinganligi to'g'risida belgi kuyadi.

Xo'jalik ilgari berilgan buyurtnomani bekor qilishga yoxud mahsulot yetkazib berish, tegishli xizmatlar ko'rsatish (ishlarni bajarish) sanasini

o'zgartirishga xaklidir. Xizmatko'rsatuvchi tashkilotlar bu haqda buyurtnomada ko'rsatilgan sana boshlanishiadan kamida bir kun oldin xabardor qilinadi.

Amaliyotda hosildorlikning oshishi va fermerlarning yuqori foyda olishlari ularga zarur bo'lgan moddiy-texnika resurslarini o'z vaqtida, kerakli miqdorda yetkazib berilishi va mexanizatsiya ishlarini o'z agrotexnika muddatlarida hamda sifatli ko'rsatilishiga bog'liq.

YOki boshqacharoq qilib aytganda:

SHu bois e'tibor bergan bo'lsangiz, xo'jaliklar tomonidan kontraktsiya shartnomalarni bajarmaganliklari uchun moddiy-texnika resurslari yetkazib beruvchilar va xizmat ko'rsatuvchilarning javobgarligi qonun tartibida ko'rib chiqiladi.

Eslatma! Siz ushbu bo'limda quyidagilarni bilib oldingiz:

-xizmat ko'rsatuvchi va moddiy-texnika resurslari yetkazib beruvchi tomonidan shartnomada ko'rsatilgan sifatda, assortiment, miqdorlarda va muddatlarda bajarmaslik yoki yetarli darajada bajarmaslik natijasida yetkazilgan zararining qoplanishini talab qilish;

-ko'rsatilgan xizmatlar va yetkazib berilgan moddiy-texnika resurslari uchun o'z vaqtida to'lovlarni amalga oshirish:

-fermer xo'jaligiga tegishli xizmat ko'rsatish yoki mahsulot yetkazib berishning vaqti boshlanishidan kamida 5 kun oldin xabar berishi va xizmat ko'rsatuvchi tashkilotlar esa buyurtmani bekor qilish to'g'risida bir kun oldin xabar berishi shart.

Vazirlar Maxkamasining 2003 yil
30 oktyabrdagi 467-son qaroriga
11-ilova

Moddiy-texnika resurslari yetkazib berishga
NAMUNAVIY SHARTNOMA*

№ _____ 200__y. «__» _____
(shartnoma tuzilgan joy)

_____asosida ish kuruvchi,
(fermer xo'jaligi ustavi)
keyinchalik «Xo'jalik» deb yuritiluvchi _____
(fermer xo'jaligining nomi)
nomidan fermer xo'jaligi boshlig'i _____
(F.I.SH.)

bir tomondan, va _____
(ustav, qaror, ishonchnoma)
asosida ish beruvchi, keyinchalik «Etkazib beruvchi» deb yuritiluvchi

(korxona, tashkilot noma)
namidan ish kuruvchi _____
(lavozimi F.I.SH.)

ikkinchi tomondan mazkur shartnomani quyidagilar to'g'risida tuzdilar:

1. SHartnoma mavzusi

1.1. Mazkur shartnoma bo'yicha «Etkazib beruvchi»

«Xo'jalik»ka _____
(keyingi urinlarda «Moddiy-texnika resurslari» deb yuritiladi)

etkazib berish., «Xo'jalik» esa ularni qabul kili shva qiymatini to'lash majburiyatini o'z zimmasiga oladi.

«Moddiy-texnika resurslari»ning aniq turlari, ularning soni, sifati va narxi, shuningdek, yetkazib berish muddatlari mazkur shartnomaning tarkibiy qismi hisoblangan ilovada keltirilgan.

II. Tomonlarning huquq va majburiyatlari

2.1. «Xo'jalik»ning huquqlari:

«Etkazib beruvchi» dan shartnomani bajarish uchun zarur bo'lgan amaldagi davlat standartlari va boshqa normativ hujjatlar bilan ta'minlashni talab qilish;

«Moddiy-texnika resurslari» «Xo'jalik»ning hisobiga transportda tashilganda «Etkazib beruvchi»dan transport harajatlarini qoplashni talab qilish;

«Etkazib beruvchi»dan mazkur shartnomani muvofiq beriladigan buyurtmanomaga muvofiq tegishli sifat, assortimentdagi «Moddiy-texnika resurslari» yetkazib berilishini talab qilish;

zarur sifatga ega bo'lmagan «Moddiy-texnika resurslari» yetkazib berilmagan taqdirda o'z tanlashiga ko'ra:

-zarur sifatga ega bo'lmagan «Moddiy-texnika resurslari» shunga uxshash «Moddiy-texnika resurslari» bilan almashtirilishi;

-kamchiliklar bepul tartaraf etilishini yoki kamchiliklar «Xo'jaliy» yoxud uchini shaxslar tomonidan to'g'rilanishi harajatlarini qoplashni;

-baxosining mutanosib tarzda kamaytirilishini talab qilish;

-mazkur shartnoma shartlari bajarilmaganligi yoki zarur darajada bajarilmaganligi natijasida yetkazilgan zarar qoplanishini «Etkazib beruvchidan»talab qilish.

2.2. «Xo'jalik»ning majburiyatalri:

o'z buyurtmasi bo'yicha yetkazib berilgan «Moddiy-texnika resurslari»ni mazkur shartnomaga muvofiq qabul qilish;

«Moddiy-texnika resurslari»ga mazkur shartnomaning 3.1-bandida ko'rsatilgan narx bo'yicha, qabul qilish-togpshirish dalolatnomasi imzolangan paytda boshlab____kun mobaynida haq to'lash.

2.3. «Etkazib beruvchi» quyidagi huquqlarga ega:

Etkazib berilgan «Moddiy-texnika resurslari» uchun oldindan haq to'lanishini va amaldagi qonun hujjatlarida belgilangan tartibda va xajmda uzil-kelik hisob qilinishini xo'jalikdan talab qilish;

Berilgan buyurtmanomaga muvofiq yetkazib berilgan «Moddiy-texnika resurslari»ni qabul qilish asossiz rad etilishi natijasida yetkazilgan zarar qoplanishini «Xo'jalik»dan talab qilish.

2.4. «Etkazib beruvchi» quyidagilarga majbur:

«Xo'jalik»ka «Moddiy-texnika resurslari»ni mazkurshartnomaga muvofiq yoki «Xo'jalik» tomonidan mazkur shartnomaning 4.8-bandida nazarda tutilgan tartibda beriladigan uning buyurtmanomasiga muvofiq muddatlar, sifat va miqdorda yetkazib berish;

agar «Moddiy-texnika aresurslari»ni yetkazib berish jarayonida «Etkazib beruvchi» shartnoma shartlari va normativlaridan chekinishga yul kuygan bo'lsa, «Xo'jalik»ning talabi bilan aniqlangan barcha kamchiliklarni _____kun muddatda tekin tuzatib berish.

III. SHartmaning baxosi va hisob-kitob tartibi

3.1. Mazkur shartnomaning baxosi _____

(summa raqamlar va harflar bilan yoziladi)

sumni tashkil etadi.

Etkazib beriladigan «Moddiy-texnika resurslari»ning baxosi mazkur shartnomaga ilovada ko'rsatilgan.

3.2. Mahsulotni transportda tashish va tushirish bo'yicha barcha harajatlarni «etkazib beruvchi» kutaradi.

Mahsulot «Xo'jalik»ning transporti bilan yetkazib berilgan taqdirda «Etkazib beruvchi» transportda tashish harajatlarini unga qoplaydi (idishni ham o'z ichiga olgan holda amaldagi massa bo'yicha).

3.3. «Xo'jalik» yetkazib beriladigan «Moddiy-texnika resurslari» turkumi summasining _____foizi miqdorida oldindan haq to'laydi. yetkazib berilgan «Moddiy-texnika resurslari» uchun qabul qilish-topshirish dalolatnomasi imzolangandan keyin _____kun muddatda uzil-kesil hisob-kitob qilinadi.

3.4. yetkazib berilgan «Moddiy-texnika resurslari» uchun _____yuli bilan nakd pulsiz _____tartibda hisob-kitob qilinadi.

(hisob-kitob shakli ko'rsatiladi)

IV. SHartnomaning bajarilishi

4.1. SHartnoma mazkur shartnoma va qonun hujjatlari va talablariga muvofiq zarur tarzda bajarilishi kerak.

Agar tomonlar o'z zimmalariga qabul qilingan barcha majburiyatlar bajarilishini ta'minlasa, shartnoma bajarilgan deb hisoblanadi.

4.2. SHartnoma bajarilishini bir tomonlama rad etishga yoki shartnoma shartlarini bir tomonlama o'zgartirishga yul kuyilmaydi, qonun hujjatlarida belgilangan hollar bundan mustasno.

4.3. «Moddiy-texnika resurslari» qabul qilish-topshirish dalolatnomalari tuzilgan sana shartnomalar bo'yicha majburiyatlar bajarilgan sana hisoblanadi.

Hisob-kitob hujjatida bank muassasasi shtampida ko'rsatilgan sana «Moddiy-texnika resurslari»ga haq to'lash bo'yicha «Xo'jalik» majburiyatlari bajarilgan sana hisoblanadi.

4.4. «Xo'jalik»ning roziligi bilan «Moddiy-texnika resurslari» muddatidan oldin yetkazib berilishi mumkin. yetkazib berilgan va «Xo'jalik» tomonidan qabul qilingan «Moddiy-texnika resurslari» uchun keyingi davrlarda yetkazib berilishi kerak bo'lgan «Moddiy-texnika resurslari» hisobiga haq to'lanadi va ular hisobiga o'tkaziladi.

4.5. «Xo'jalik» muddatlar buzilgan holda yetkazib berilgan «Moddiy-texnika resurslari»ni qabul qilishni rad etishga xaklidir.

4.6. nazarda tutilgan miqdordan ortiqcha bir nomda «Moddiy texnika resurslari» boshqa nomdagi yetkazib berilmagan «Moddiy-texnika resurslari» urnini tuldir

s'ul hodimi tomonidan dalolatnoma bo'yicha qabul qilinadi. Dalolatnomada yetkazib berilgan «Moddiy-texnika resurslari» miqdori, ularning sifati ko'rsatiladi.

4.8. Mazkur shartnomada nazarda tutilgan «moddiy-texnika resurslari» yetkazib berish mazkur shartnomaga muvofiq yoki «Xo'jaliy»ning buyurmanomasida ko'rsatilgan muddatlar va xajmda mazkur shartnomada ko'rsatilgan davr mobaynida amalga oshiriladi. Ushbu maksadlarda «Etkazib beruvchi» xo'jaliklarning buyurtmanomalarini ro'yxatdan o'tkazish daftarini yuritadi.

Buyurtmanoma «moddiy-texnika resurslari»ning tegishli turkumlarini yetkazib berishning muljallanayotgan sanasigacha kamida 5 kun oldin chopar orkali, pochta orkali yoki boshqacha tarzda beriladi. Buyurtmanomani chopar orkali qabul qilishda «Etkazib beruvchi»ning hodimi «Xo'jalik»da koladigannusxaga sanani ko'rsatgan holda u qabul qilinganligi to'g'risida belgi kuyadi.

4.9. «Xo'jalik» ilgari berilgan buyurtmanomani bekor qilishga yoxud «Moddiy-texnika resurslari»ning tegishli turkumlarini yetkazib berish sanasini o'zgartirishga xaklidir, bu haqda «Etkazib beruvchi»ni buyurtmanomada ko'rsatilgan sana boshlanishidan kamida 1 kun oldin xabardor kiladi.

V. Tomonlarning javobgarligi

5.1. Tomonlar o'rtasida kelishilgan jadval bo'yicha kelgan tarnsportning belgilangan muddatlardan ortiqcha turib kolganligi uchun aybdor tomon bekar

turib kolganlik bilan bog'liq sarf-harajatlarni to'laydi. Bekor turib kolish vaqti tomonlar o'rtasida imzolangan dalolatnomaga muvofiq rasmiylashtiriladi.

5.2. yetkazib berilayotgan «Moddiy-texnika resurslari» sifati, miqdori «etkazib beruvchi» tomonidan noto'g'ri aniqlanishi, ularning qiymati noto'g'ri belgilanishi va undirilishi hollari aniqlangan taqdirda «Etkazib beruvchi» yetkazib berilayotgan «Moddiy-texnika resurslari»ning sifati, shuningdek, ularning miqdorini hisobga olgan holda kayta hisob-kitob qiladi va hisoblab chiqilgan ushbu summadan tashqari «Xo'jalik»ka noto'g'ri hisob-kitob qilingan summaning 20 foizi miqdorida jarima to'laydi.

5.3. Agar yetkazib berilgan «Moddiy-texnika resurslari» ning sifati, assortimenti, navlari, standart, texnik shartla talablariga, namunalarga (etalonlarga) yoki shartnomada belgilangan boshqa shartlarga javob bermagan taqdirda, aybdor tomon yetkazib berilgan, sifati zarur darajada bo'lmagan «Moddiy-texnika resurslari» qiymatining 20 foizi miqdorida jarima to'laydi.

5.4. «Moddiy-texnika resurslari» yetkazib berish bo'yicha shartnomada nazarda tutilgan majburiyatlar bajarilishi radetilganligi uchun «Etkazib beruvchi» «Xo'jali»ka belgilangan ustamalardan tashqari yetkazib berilishi kerak bo'lgan «Moddiy-texnika resurslari»ning 25 foizi miqdorida jarima to'laydi. Jarimadan tashqari, «Etkazib beruvchi» «Xo'jalik»ka «Moddiy-texnika resurslari» yetkazib berilmasligi natijasida yetkazilgan zararni to'laydi.

5.5. «Moddiy-texnika resurslari»ni yetkazib berish kechiktirilgan yoki to'liq yetkazib berilmagan taqdirda «Etkazib beruvchi» «Xo'jalik»ka kechiktirilgan har bir kun uchun majburiyat bajarilmagan qismining 0,5 foizi miqdorida penya to'laydi, birok bunda penyaning umumiy summasi yetkazib berilmagan «Moddiy-texnika resurslari» qiymatining 50 foizidan ortiq bo'lmasligi kerak. Penya to'lanishi shartnoma majburiyatlarini buzgan tomonni shartnomani zarur tarzda bajarishdan va «Moddiy-texnika resurslari» yetkazib berish muddati kechiktirilishi yoki to'liq yetkazib berilmasligi tufayli yetkazilgan zararlar qoplanishidanozod etmaydi.

5.6. yetkazib berilgan «Moddiy-texnika resurslari» uchun o'z vaqtida haq to'lanmaganda «Xo'jalik» «Etkazib beruvchi»ga muddati kechiktirilgan har bir kun uchun kechiktirilgan to'lov summasining 0,4 foizi miqdorida penya to'laydi, birok bu kechiktirilgan to'lov summasining 50 foizidan ortiq bo'lmasligi kerak.

5.7. «Xo'jalik» tomonidan tegishli kontraktatsiya shartnomasi bajarilmaganligi yoki zarur darajada bajarilmaganligi uchun «Xo'jalik»ni javobgarlikka tortishda, shuningdek, uning xatti-harakatlari (harakatsizligi) «Xo'jalik» tomonidan kontraktatsiya shartnomasi bo'yicha shartnoma majburiyatlari bajarilmasligi (zarur tarzda bajarilmasligiga) olib kelgan «Etkazib beruvchi»ning javobgarligi ham ko'rib chiqiladi. «Etkazib beruvchi»ning aybi bilan kontraktatsiya shartnomasining «Xo'jalik» tomonidan bajarilmasligi (Zarur tarzda bajarilmasligi) natijasida yetkazilgan zarar belgilangan tartibda «Etkazib beruvchi» tomonidan qoplanadi.

5.8. Mazkur shartnomada nazarda tutilmagan tomonlarning javobgarligi chora-tadbirlari fuqarolik qonunchiligi normallariga muvofiq qo'llaniladi.

VI. Nizolarni hal etish tartibi

6.1. Kelishmovchiliklar va nimoli masalalar kelib chiqqan taqdirda, tomonlar, qoidaga ko'ra, mustaqil ravishda yoxud tuman qishloq va muv xo'jalik bo'limi ishtirokida ularni suvgacha hal Tish choralarini ko'radilar.

6.2. Tomonlar kelishmovchiliklar va nimolarni hal etish uchun bevosida sudga murojaat qilishga xaklidir.

VII. SHartnomaning amal qilishi

7.1. Mazkur shartnoma mazkur shartnomaning 8.4-bandiga muvofiq ro'yxatdan o'tkazilgan kundan boshlab amalga kiradi va tomonlar Ushbu shartnoma bo'yicha o'z majburiyatlarini bajargunga kadar amal kiladi.

71 Tomonlar o'rtasidagi munosabatlar ular tomonidan mazkur shartnomaning barcha shartlari bajarilgan va hisob-kitob to'liq tugallangan taqdirda tuxtatiladi.

VIII. YAkuniy qoidalar.

8.1. Mazkur shartnoma tomonlarning kelishuviga ko'ra yoki boshqa tomon shartnoma shartlarini jiddiy ravishda buzgan taqdirda, tomonlardan birinchi talabi bo'yicha sud tartibida bekor qilinishi mumkin.

8.2. Mazkur shartnomaga har qanday o'zgartirish va qo'shimchalar ular yozma shaklda sodir etilishi va tomonlarning bunga zarur vakil qilingan vakillari tomonidan imzolanishi shart bilan haqiqiy hisoblanadi.

8.3. Mazkur shartnoma tomonlarning har biri va qishloq va suv xo'jaligi bo'limi uchun bir nusxadan uch nusxada tuziladi.

SHartnomaning barcha nushalari teng yuridik kuchga egadir.

8.4 Mazkur shartnoma, unga o'zgartirishlar (qo'shimchalar) «Xo'jalik» joylashgan joy bo'yicha tuman qishloq va suv xo'jaligi bo'limida ro'yxatdan o'tkazilgandan keyin bajarilishi kerak.

IX. Tomonlarning manzili va bank rekvizitlari

«Xo'jalik»	«Tayyorlovchi»
Solik to'lovchining identifikatsiya raqami	Solik to'lovchining identifikatsiya raqami
M.U.Fermer xo'jaligi boshli- gining	M.U. imzo, lavozimi, F.I.O.

					1	2	3	4	5	6	7	8	9	10	11	12

Etkazib beruvchi _____
(imzo, muxr)

Xo'jalik _____
(imzo, muxr)

Nazorat va takrorlash uchun savollar:

1. *Moddiy-texnika resurslari fermer xo'jaligi uchun qanday ahamiyat kasb etadi?*
2. *Tayyorlov va xizmat ko'rsatuvchi korxonalari bilan shartnomada fermer xo'jaligi qanday huquqlari va majburiyatlari mavjud?*
3. *Moddiy-texnika resurslari yetkazib beruvchi korxonaning qanday huquqlari va majburiyatlari mavjud?*
4. *Moddiy-texnika resurslari yetkazib berish bo'yicha shartnoma tuzishda nimalarga e'tibor berish kerak?*
5. *Moddiy-texnika resurslari yetkazib berish bo'yicha shartnomani bekor qilish tartibi qanday?*

5-mavzu: Qishloq xo'jaligi korxonalari bilan xizmat ko'rsatish bo'yicha tuziladigan shartnomalariga qo'yiladigan talablar

Reja:

1. SHartnomalarga qo'yiladigan umumiy talablar
2. Xizmat ko'rsatish bo'yicha tuziladigan shartnomalarda tomonlarning majburiyatlari.
3. Xizmat ko'rsatish bo'yicha tuziladigan shartnomalarning ilovasi.

Xujalik faoliyatining turli jihatlarini aks ettiruvchi shartnomalarning uzlari xam, ularning kullanish soxalarining kengayishi xam tadbirkorlik tashabbuslarining yanada tularok namoyen bulishiga yordam beradi, bozorning

faoliyat kursatish, shaxs va oila turmush darajasini oshirish uchun uning imkoniyatlaridan tularok foydalanish uchun zarur shart-sharoitlarni yaratib beradi.

SHartnoma tugrisidagi avvalgi tasavvurlar oldingi ijtimoiy tuzum, davlat mulkchiligining tanxo xukuki davrida xukmronlik qilgan usha tamoyillardan kelib chikkan. Usha sharoitlarda shartnomaga uni tuzgan tomonlarning erkin xoxish-irodasini ifoda etuvchi tula xukukli yuridik xujjat deb karalmasdi. Bir mulkchilik shakli (davlat) doirasida korxonalar urtasida karor topadigan mulkiy munosabatlar tovar-pul kurinishiga ega emasdi, chunki mulkchilik sub'ektlarining almashinishi yuk edi.

SHuning uchun xam mulkiy munosabatlarni tartibga solib turuvchi vosita sifatida foydalanib kelingan shartnoma tomma'nodagi shartnoma emasdi, u shunchaki reja-topshiriklarni bajarish uchun bir vosita urnida kullanilardi, xolos. Uning mazmunini tomonlarning istaklari va manfaatlari emas, balki usha vaktlarda majburiy xisoblangan reja xujjatlari ish topshirigi (naryadlar), biron ishni bajarish xujjati (raznaryadkalar) belgilab, ularga muvofik kelish kerak edi. Davlat xakamlar sudi (arbitraj) organlari korxonalar urtasidagi an shu muvofiklikka birinchi galda e'tibor berar edi.

Endilikda munosabatlar tovar-pul, ya'ni kiymat, ekvivalent-tulov tarzida bulib, shartnoma ularga xukukiy shakl urnida xizmat kiladi, endi u rejali ishlab chikarish va taksimlash omillariga asoslangan emas. Fakat uning yordamidagina ishlab chikarish soxasi va moddiy xam nomoddiy ne'matlarni iste'mol kilishdagi talab va takliflarni tugri belgilash mumkin.

Avvalgi va xozirgi sharoitlarda shartnomaning moxiyati xamda rolining farki xakida gapirar ekanmiz, shuni ta'kidlash kerakki, ilgarilari mavzui va sub'ekt tarkibiga boglik ravishda uning kullanilishi cheklab kuyildgan edi. Fukarolar fakat chakana savdo soxasidagina shartnoma egalari sifatida ish kurib, iste'mol buyumlarinigina xarid kila olardi. Ikkinchi tomondan, ular uzlarining moddiy va madaniy extiyojlarini kondirish uchun fakat davlat va kolxoz-kooperativ savdo tashkilotlari bilangina bitim tuza olardilar.

Korxona, muassasa, tashkilotlar xam shartnoma munosabaitlarining egasi (sub'ekti) sifatida erkin ish kurolmasdilar. Oldi-sotdi shartnomasiga muvofik korxonalarga juda kam, arzimas tovarlarni sotib olishga ruxsai berilardi, aslida esa ishlab chikarishni maxsulot, ish, xizmat bilan ta'minlash esa ajratilgan limitlar yoki fondlar doirasida mollarni yetkazib berish shartnomasiga muvofik amalga oshiriladi. Lekin shunda xam korxona yetkazib beruvchilar yoki xaridorini uzi ta'minlay olmsdi, fakat naryadlarda kursatilgan tashkilotlar bilan shartnoma tuzishga majbur edi. Korxona normativdan oshik, ortikcha, foydalanilmayotgan moddiy boyliklarni erkin sotish xukukidan xam maxrum edi: bular tugrisida yukori boshkaruv organiga albbatta ma'lumot berishlari kerak edi, u usha mollarni karamogidagi xujalik sube'ktlari urtasida taksimlab chikaradi.

Fakat davlat va kolxoz kooperativ mulkchiligi mavjud bulgan sharoitda ishlab chikarish vositalari muomaladan fukarolar ishtirokidan olib tashlanadi. Ular, aytaylik, fukarolar bilan korxonalar urtasida oldi-sotdi shartnomasini mavzui

bula olmasdi. Bozor shartnoma mavzui bula oladigan narsalar doirasini ancha kengaytiradi, boshkacha aytganda, shartnoma tuzishdan kuzlangan maksadni yaqinlashtiradi. Masalan, tovar muomalasi soxasida shartnoma mavzu sifatida ishlab chikarish vositalaridan xam, iste'mol buyumlari, maxsulotlaridan cheklanmagan xolda foydalanish mumkin. Konun xozirgi kunda fukarolik muomalasidan juda kam ob'ektlarni chikarib tashlagan.

SHartnomalarning sube'kt tartibi buyicha oldingi konunlarda bulgan cheklashlar xozir olib tashlangan. Unda shartnomaning turi va mavzusidan kat'iy nazar, tomonlar sifatida xam jismoniy shaxslar xam yuridik shaxslar ish kurishi mumkin.

YAngi konundagi koidaga muvofik fukarolar va yuridik shaxslarga shartnoma tuzishda tula erkinlik beriladi. SHartnoma tuzishda ularni majbur kilishga yul kuyilmaydi, shartnoma tuzish majburiyati konunda yoki kabul kilingan majburiyatda kuzda tutilga xollar bundan mustasno.

SHunday kilib jamiyatimizni demakratiyalashtirish shaxs erkinligi boshka mexanizmlarning, birinchi navbatda iktisodiy mexanizmlarning ishlashi uchun konunning cheklovchi doiralarining ancha kengaytirish imkonini oldindan belgilab berdiki, xususiy mulkchilik va uning daxlsizligi usha demakratiyalashtirish va erkinlikning moddiy asosini tashkil etadi. SHartnomalar mulkchilik xukuki sube'ktlari tomonidan ularning manfaatlari yulida tuziladi. SHartnoma buyicha majburiyatlarinng buzilganligi uchun shartnoma tuzgan tomonlarning uzlari javob beradi. Fakat javob beribgina kolmay, zarar xam kuradi. Ular, ilgariqiday davlat mablaglari xisobidan koplanishi mumkin emas.

Butun dunyo shartnoma munosabatlarida amaliy ishda karor topgan muayyan urf-odatlar muxim rol uynaydi, bu omil konunda xisobga olingan, zero, ular or-nomus, kadr-kimmat, odamiylik an'analari sinovdan utgan.

Konun shartnoma munosabatlarida kanchalik kup erkinlik bersa, xujalik sube'ktlarining xukukiy madaniyati shunchalik yukori jixatdan tugri shartnoma tuzish shartnomada kabul kilingan majburiyatlarni bajarishga masuliyat bilan yondashish, uz xukuk va konuniy manfaatlarini ximoya kila olish uchun zarur bir asosdir.

SHartnoma xujalik munosabatlarini tartibga solib turuvchi bosh omil sifatida amaldagi konun talablarini xisobga olgan xolda tuzilishi kerak, bu uning konuniyligini ta'minlabgina kolmay, shunigdek xujalik shartnoma alokalarni anik va okilona tashkil etishga xam yordam beradi.

Vazirlar Maxkamasining 2003 yil

30 oktyabrdagi 476-son qaroriga

12-ILOVA

Xizmatlar ko'rsatishga (ishlarni bajarishga)

NAMUNAVIY SHARTNOMA

№ _____

(shartnoma tuzilgan joy)

200__y. «__» _____

_____asosida ish kuruvchi,

(fermer xo'jaligi ustavi)

keyinchalik

«Xo'jalik»

deb

yuritiluvchi

_____ (fermer xo'jaligining nomi)

nomidagi fermer xo'jaligi boshlig'i _____

(F.I.SH.)

bir tomondan, va _____

(ustav, qaror, ishonchnoma)

asosida ish beruvchi, keyinchalik «Bajaruvchi» deb yuritiluvchi

_____ (korxona, tashkilot nomi)

nomidan ish kuruvchi _____

(lavozimi, F.I.SH.)

ikkinchi tomondan mazkur shartnomani quyidagi to'g'risida tuzdilar:

1. SHartnoma mavzusi

1.1. Mazkur shartnoma bo'yicha «Bajaruvchi» «Xo'jalik»ka

_____ (keyingi urinlarda «Xizmatlar» deb yuritiladi)

etkazib berish, «Xo'jalik» esa ularni qabul qilish va qiymatini to'lash majburiyatini o'z zimmasiga oladi.

«Xizmatlar»ning aniq turlari, ularning soni, sifati va narxi, shuningdek, yetkazib berish muddatlari mazkur shartnomaning tarkibiy qismi hisoblangan ilovada keltirilgan.

II. Tomonlarning huquq va majburiyatlari

2.1. «Xo'jalik»ning huquqlari:

«Bajaruvchi»dan shartnomani bajarish uchun zarur bo'lgan amaldagi davlat standartlari va boshqa normativ hujjatlar bilan ta'minlashni talab qilish;

«Bajaruvchi»dan «Xizmatlar» «Xo'jalik»ning hisobiga transportda tashilganda transport harajatlarini qoplashni talab qilish;

«Bajaruvchi»dan mazkur shartnomaga muvofiq beriladigan ko'rsatilishini buyurtmanomaga muvofiq tegishli sifatga ega bo'lgan «Xizmat» ko'rsatilishini talab qilish;

zarur sifatga ega bo'lmagan «Xizmatlar» ko'rsatilgan taqdirda o'z tanlashiga ko'ra:

-zarur sifatga ega bo'lmagan «Xizmatlar» shunga uzshash «Xizmatlar» bilan almashtirilishini;

-«Xizmatlar»ning kamchiliklari bepul bartaraf etilishini yoki kamchiliklar «Xo'jalik» yoxud uchinchi shaxslar tomonidan to'g'rilanishi harajatlarini qoplashni;

-baxosining mutanosib tarzda kamaytirilishini talab qilish;
shartnoma shartlari bajarilmaganligi yoki zarar qoplanishini «Bajaruvchi»dan talab qilish.

2.2. «Xo'jalik»ning majburiyatlari:

o'z buyurtmasi bo'yicha ko'rsatilgan «Xizmatlar»ni mazkur shartnomaga muvofiq qabul qilish;

«Xizmatlar»ga mazkur shartnomaning 3.1-bandida ko'rsatilgan narx bo'yicha, qabul qilish-topshirish dalolatnomasi imzolangan paytdan boshlab _____kun mobaynida haq to'lash.

2.3. «Bajaruvchi» quyidagi huquqlarga ega:

Ko'rsatilgan «Xizmatlar» uchun oldindan haq to'lanishini va amaldagi qonun hujjatlarida belgilangan tartibda va xajmda uzil-kesil hisob qilinishini «Xo'jalik»dan talab qilish;

Berilgan buyurtmanomaga muvofiq ko'rsatilgan «Xizmatlar» ni kaabu qilish asossiz rad etilishi natijasida yetkazilgan zarar qoplanishini «Xo'jalik»dan talab qilish.

2.4. «Bajaruvchi» quyidagilarga majbur:

«Xo'jalik»ka «Xizmatlar»ni mazkur shartnomaga muvofiq yoki «Xo'jalik» tomonidan mazkur shartnomaning 4.8-bandida nazarda tutilgan tartibda beriladigan uning buyurtmanomasiga muvofiq muddatlar, sifat va miqdorda ko'rsatish; agar «Xizmatlar»ni ko'rsatish jarayonida «Bajaruvchi» shartnoma shartlari va normativlaridan chekishga yul kuygan bo'lsa, «Xo'jalik»ning talaba bilan aniqlangan barcha kamchiliklarni _____kun muddatda tekin tuzatib berish.

III. SHartnomaning baxosi va hisob-kitob tartibi

3.1. Mazkur shartnomaning baxosi _____ (summa raqamlar va harflar bilan yoziladi)

so'mni tashkil etadi.

Etkazib beriladigan «Xizmatlar»ning baxosi mazkur shartnomaga ilovada ko'rsatilgan.

3.2. «Xo'jalik» ko'rsatiladigan «xizmatlar» turkumi summasining _____foizi miqdorida oldindan haq to'laydi. Ko'rsatilgan «Xizmatlar» uchun qabul qilish topshirish dalolatnomasi imzolangandan keyin _____kun muddatda uzil-kesil hisob kitob qilinadi.

3.3. Ko'rsatilgan «Xizmatlar» uchun _____ (hisob-kitob shakli ko'rsatiladi)

yuli bilan nakd pulsiz tartibda hisob-kitob qilinadi.

IV. SHartnomaning bajarilishi

4.1. SHartnoma mazkur shartnoma va qonun hujjatlari va talablariga muvofiq zarur tarzda bajarilishi kerak

Agar tomonlar o'z zimmlariga qabul qilingan barcha majburiyatlar bajarilishini ta'minlasa, shartnoma bajarilgan deb hisoblanadi.

4.2. SHartnoma bajarilishini bir tomonlama rad etishga yoki shartnoma shartlarini bir tomonlama o'zgartirishga yul kuyilmaydi, qonun hujjatlarida belgilangan hollar bundan mustasno.

4.3. «Xizmatlar»qabul qilish=topshirish dalolatnomari tuzilgan sana shartnomalar bo'yicha majburiyatlar bajarilgan sana hisoblanadi.

Hisob-kitob hujjatida bank muassasasi shtampida ko'rsatilgan sana «Xizmatlar»ga haq to'lash bo'yicha «Xualik» majburiyatlari bajarilgan sana hisoblanadi.

4.4. «Xo'jalik»ning roziligi bilan «Xizmatlar» muddatidan oldin yetkazib berilishi mumkin. «Xo'jalik» tomonidan ko'rsatilgan va qabul qilingan «xizmatlar» uchun keyingi davrlarda ko'rsatilishi kerak bo'lgan «Xizmatlar» hisobiga haq to'lanadi va ular hisobidga o'tkaziladi.

4.5. «Xo'jalik» muddatlar buzilgan holda ko'rsatilgan «Xizmatlar»ni kaabu qilishni rad etishga xaklidir.

4.6. Nazarda tutilgan miqdordan ortiqcha bir nomda «Xizmatlar» ko'rsatilishi Ushbu assortimentga kiruvchi boshqa nomdagi ko'rsatilmagan «Xizmatlar» urnini tuldirish sifatida karalmaydi va ko'rsatilmagan «Xizmatlar»ning urni tuldirilishi kerak, bunday «Xizmatlar» ko'rsatish «Xo'jalik»ning oldindan berilgan yozma roziligi bo'yicha amalga oshirilgan hollar bundan mustasno.

4.7. Ko'rsatilgan «Xizmatlar» bevosita «Xo'jalik»ning mas'ul hodimi tomonidan dalolatnoma bo'yicha qabul kilnadi. Dalolatnoma ko'rsatilgan «Xizmatlar» miqdori, ularning sifati ko'rsatiladi.

4.8. Mazkur shartnomada nazarda «Xizmatlar»ko'rsatish mazkur shartnomaga muvofiq yoki «Xo'jalik» ning buyurtmanomasida ko'rsatilgan muddatlar vaxajmda mazkur shartnomada ko'rsatilgan davr mobaynida amalga oshiriladi. Ushbu maksadlarda «Bajaruvchi» xo'jaliklarning buyurtmanomalarini ro'yxatdan o'tkazish daftarini yuritadi.

Buyurtmanoma «Xizmatlar»ning tegishli turkumlarini ko'rsatish muljallanayotgan sanasigacha kamida 5 kun oldin chopar orkali, pochta orkali yoki boshqacha tarzda beriladi. buyurtmanomani chopar orkali qabul qilishda «Bajaruvchi»ning hodimi «Xo'jalik»da koladigan nusxaga sanani ko'rsatgan holda u qabul kilganligi to'g'risida belgi kuyadi.

4.9. «Xo'jalik» ilgari berilgan buyurtmanomani bekor qilishga yoxud «Xizmatlari»ning tegishli turkumlarini yetkazi berish sanasini o'zgartirishga xaklidir, bu haqda «bajaruvchi»ning hodimi «Xo'jalik»da koladigan nusxaga sanani ko'rsatgan holda u qabul kilganligi to'g'risida belgi kuyadi.

4.9. «Xo'jalik» ilgari berilgan buyurtmanomani bekor qilishga yoxud «Xizmatlari»ning tegishli turkumlarini yetkazib berish sanasini o'zgartirishga

xaklidi, bu haqda «Bajaruvchi»ni buyurtmanomada ko'rsatilgan sana boshlanishinidan kamida 1 kun oldin xabardor kiladi.

V.Tomonlarning javobgarligi

5.1. Ko'rsatilayotgan «Xizmatlar»ning sifati, miqdori «Bajaruvchi» tomonidan noto'g'ri aniqlanishi, ularning qiymati noto'g'ri belgilanishi va undirilishi hollari aniqlangan taqdirda «Bajaruvchi» ko'rsatilayotgan «Xizmatlar»ning sifatini, shuningdek, ularning miqdorini hisobga olgan holda kayta hisob-kitob kiladi va hisoblab chiqilgan Ushbu summadan tashqari «Xo'jalik»ka noto'g'ri hisob-kitob qilingan summaning 20 foizi miqdorida jarima to'laydi.

5.2. Agar ko'rsatilayotgan «xizmatlar» ning sifati, assortimenti, navlari, standart, texnik shartlar talablariga,namunalarga (etalonlarga) yoki shartnomada belgilangan boshqa shartlarga javob bermagantaqdirda, aybdor sifati zarur darajada bo'lmaganko'rsatilgan «Xizmatlar» qiymatining 20 foizi miqdorida jarima to'laydi.

5.4. «Xizmatlar» ko'rsatish bo'yicha shartnomada nazarda tutilganmajburiyatlar bajarilishi rad etilganligi uchun «Bajaruvchi» «Xo'jalik»ka belgilangan ustamalardan tashqari ko'rsatilishi kerak bo'lgan «Xizmatlar»ning 25 foizi miqdorida jarima to'laydi. Jarimadan tashqari, «Bajaruvchi» «Xo'jalik»ka «Xizmatlar» ko'rsatilmasligi natijasida yetkazilgan zararni to'laydi.

5.5. «Xizmatlar» ko'rsatish kechiktirilgan yoki to'liq ko'rsatilmagan taqdirda «Bajaruvchi» «Xo'jalik»ka kechiktirilgan har bir kun uchun majburiyat bajarilmagan qismining 0,5 foizi miqdorida penya to'laydi. biroq bunda penyaning umumiy summasi ko'rsatilmagan «Xizmatlar» qiymatining 50 foizidan ortiq bo'lmasligi kerak. Penya to'lanishi shartnoma majburiyatlarini buzgan tomonni shartnomani zarur tarzda bajarishdan va «Xizmatlar» ko'rsatish muddati kechiktirilishi yoki to'liq ko'rsatilmasligi tufayli yetkazilgan zararlar qoplanishidanozod etmaydi.

5.6. Kusatilgan «Xizmatlar» uchun o'z vaqtida haq to'lanmaganda «Xo'jalik» «Bajaruvchi» ga muddati kechiktirilgan har bir kun uchun kechiktirilgan to'lov summasining 0,4 foizi miqdorida penya to'laydi, biroq bu kechiktirilgan to'lov summasining 50 foizidan ortiq bo'lmasligi kerak.

5.7. «Xo'jalik» tomonidan tegishli kontraktatsiya shartnomasi bajarilmaganligi yoki zarur darajada bajarilmaganligi uchun «Xo'jalik»ni javobgarlikka tortishda, shunigndek, uning xatti-harakatlari (harakatsizligi) «Xo'jalik» tomonidan kontraktatsiya shartnomasi bo'yicha shartnoma majburiyatlari bajarilmasligiga (zarur tarzda bajarilmasligiga) olib kelgan «Bajaruvchi»ning javobgarligi ham ko'rib chiqiladi.

«Bajaruvchi»ning javobgarligi ham ko'rib chiqiladi.

5.8. Mazkur sharnomada nazarda tutilmagan tomonlarning javobgarligi chora-tadbirlari fuqarolik qonunchiligi normalariga muvofiq qo'llaniladi.

VI. Nizolarni hal etish tartibi

6.1. Kelishmovchiliklar va nizoli masalalar kelib chiqqan taqdirda, tomonlar, qoidaga ko'ra, mustaqil ravishda yoxud tuman qishloq va suv xo'jaligi bo'limi ishtirokida ularni sudgacha hal etish choralarini ko'radilar.

VII. SHartnomaning amal qilishi

7.1. Mazkur shartnoma mazkur shartnomaning 8.4-bandiga muvofiq ro'yxatdan o'tkazilgan kundan boshlab amalga kiradi va tomonlar Ushbu shartnoma bo'yicha o'z majburiyatlarini bajarungacha kadam amal qiladi.

7.2. Tomonlar o'rtasidagi munosabatlarular tomonidan mazkur shartnomaning barcha shartlari bajarilgan va hisob-kitob to'liq tugallangan taqdirda tuxtatiladi.

VIII. YAkuniy qoidalar

8.1. Mazkur shartnoma tomonlarning kelishuviga ko'ra yoki boshqa tomon shartnoma shartlarini jiddiy ravishda buzgan taqdirda, tomonlardan birining talaba bo'yicha sud tartibida bekor qilinishi mumkin.

8.2. Mazkur shartnomaga har qanday o'zgartirish va qo'shimchalar ular yozma shaklda sodir etilishi va tomonlarning bunga zarur darajada vakil qilingan vakillari tomonidan imzolanishi sharti bilan haqiqiy hisoblanadi.

8.4. Mazkur shartnoma tomonlarning har biri va qishloq va suv xo'jaligi bo'limi uchun bir nusxalari tengyuridik kuchga egadir.

shartnomaning barcha nusxalari teng yuridik kuchga egadir.

8.3. Mazkur shartnoma, unga o'zgartirishlar (kuimchalar) «Xo'jalik» joylashgan joy bo'yicha tuman qishloq va suv xo'jaligi bo'limida ro'yxatdan o'tkazilgandan keyin bajarilish kerak.

IX. Tomonlarning manzili va bank rekvizitlari

«Xo'jalik»

«Tayyorlovchi»

Solik to'lovchining
identifikatsiya raqami

Solik to'lovchining
identifikatsiya raqami

M.U.Fermer xo'jaligi boshli- gining
imzosi, F.I.O.

M.U. imzo, lavozimi, F.I.O.

200_y. «__» _____ da _____ raqami bilan tuman qishloq va suv
xo'jaligi bo'limida

«RO'YXATDAN O'TKAZILDI»

M.U. imzo, lavozimi, F.I.O.

YUristning xulosasi:

_____(imzo)_____(F.I.O.)

9-ILOVA

200__yildagi «__»____dagi
____-son shartnomaga ilova

Xizmatlar ko'rsatish (ishlarni bajarish) jadvali

Ko'rsatiladigan xizmatlar (bajariladigan ishlar) nomi	Ulchov birligi	Ko'rsatiladigan xizmatlar (bajariladigan ishlar) xajmi	Ko'rsatiladigan xizmatlar (bajariladigan ishlar) qiymati	Ko'rsatiladigan xizmatlar (bajariladigan ishlar) umumiy summasi	SHu jumladan oylar bo'yicha											
					1	2	3	4	5	6	7	8	9	10	11	12

Etkazib beruvchi_____
(imzo, muxr)

Xo'jalik_____
(imzo, muxr)

Nazorat va takrorlash uchun savollar:

1. Xizmatlar ko'rsatish shartnomasining namunasi qaysi me'yoriy hujjatda keltirilgan?
2. SHartnomalarga qanday umumiy talablar qo'yiladi?
3. Xizmatlar ko'rsatish shartnomasida tomonlarning qanday huquq va majburiyatlari bor?
4. Xizmatlar ko'rsatish shartnomasining hisob-kitob tartibi qanday bo'ladi?
5. Xizmatlar ko'rsatish shartnomasida tomonlarning qanday mulkiy javobgarligi mavjud?
6. Nizolarni hal etish tartibi qanday?

6-mavzu: Tayyorlov tashkilotlari bilan kontraktatsiya shartnomalari

Reja:

1. Tayyorlov tashkilotlari bilan kontraktatsiya shartnomalarini tuzish

muddatlari

2. Kontraktatsiya shartnomalarining muhim tarkibiy qismlari.
3. Tuman qishloq va suv xo'jaligi bo'limi hodimlarining javobgarligi
4. Kontraktatsiya shartnomalarida fermerning majburiyatlari

Bozor iqtisodiyotiga o'tish jarayoniida fermer xo'jaliklari faoliyatini samarali olib borishda shartnomaviy munosabatlarini tutgan o'rni va ahamiyati beqiyos darajada kattadir. Qishloq xo'jaligida shartnomaviy munosabatlarni tarkib topishi va qo'llanilishi tarixi juda qadimiy bo'lib, uning ildizlari feodalistik ishlab chiqarish usuliga borib taqaladi. Sobiq ittifoq davrida shartnomalar o'zining xaqiqiy mazmun-mohiyatini yo'qotib ko'proq ma'muriy buyruqbozlik vositasiga aylanib qolgan edi. Xozirgi kunda bozor iqtisodiyotiga o'tilishi munosabati bilan mulkchilikning va unga mos xolda xo'jalik yuritishning yangi shakllarini, ayniqsa xususiy tadbirkorlikni rivojlanishi asosida shartnomaviy munosabatlarni qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishida tutgan o'rni va ahamiyati keskin ortib bormoqda.

SHartnoma bu bozor munosabatlari sharoitida fermerlar, ularga xizmat kursatuvchilar, ta'minotchilar, maxsulot sotib oluvchilar va boshqa shu kabi korxonalar va tashkilotlar o'rtasida vujudga keladigan munosabatlarni tartibga solib turuvchi xuquqiy xujjatdir. SHartnoma munosabatlari xuquqiy-me'yoriy xujjatlar asosida tartibga solib turiladi. Ular jumlasiga Fuqorolik kodeksi, Fermer xo'jaligi to'g'risidagi qonun, Xujalik yurituvchi sub'ektlar faoliyatining shartnomaviy xuquqiy bazasi to'g'risidagi qonun, Qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishida shartnomaviy munosabatlarini takomillashtirish va majburiyatlarning bajarilishi uchun tomonlarning javobgarligini oshirish chora-tadbirlari to'g'risidagi Vazirlar Maxkamasining 4.09.2003 yildagi 383 sonli qarori, xamda shu soxaga taaluqli bo'lgan yuqori boshqarish organlarini buyruqlari, nizomlar va boshqa shu kabi me'yoriy xujjatlar kiradi.

Qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishini tashkil etish va boshqarishda fermer xo'jaliklari tomonidan qo'llaniladigan shartnomaviy munosabatlar uch guruxga bo'linadi, ya'ni qishloq xo'jalik maxsulotlarini sotish, moddiy-texnika resurslarini yetkazib berish va xizmat ko'rsatish bo'yicha tuziladigan shartnomalar. SHartnoma xuquqiy xujjat bo'lib, u o'zida tomonlarning teng xuquqliligini, mustaqilligini, erkinligini, manfaatdorligini va mulkiy javobgarligini ifodalaydi. Qishloq xo'jalik maxsulotlarini xaridi qilish bo'yicha tuzilgan shartnomalar-kontraktatsiya shartnomasi deb yuritiladi. Kontraktatsiya shartnomalari O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Maxkamasini 29 avgust 1994 yildagi qarori bilan tasdiqlangan «Kontraktatsiya shartnomalarini tuzish va bajarish to'g'risida» gi Nizom asosida tayyorlanib rasmiylashtiriladi. Mustaqil faoliyat ko'rsatuvchi tashkilotlar va korxonalar o'rtasida tuzilayotgan shartnomalar amaldagi qonun xujjatlariga, me'yorlarga va standartlarga mos kelishi muxim ahamiyatga egadir. SHu maqsadda tuzilgan shartnomalar xo'jalikni xuquqshunos yoki jalb etilgan advokat tomonidan tekshirilib chiqiladi. Agar shartnomani qiymati eng kam ish xaqini (12400) 200 barobaridan ortib ketsa shartnoma xuquqshunoslarini yozma

xulosasidan keyin tasdiqlanadi. Sababi bu soxadagi nizolarning va kelishmovchiliklarning aksariyati shartnomalarni qonun xujjatlariga mos kelmasligi natijasida yuzaga keladi.

Xo'jalik sudlarining aniqlashlaricha tomonlarning shartnoma shartlarini ko'rsatilgan muddatlarda qisman yoki to'la bajarilmasliklarining asosiy sabablari kuyidagilar bilan asoslanadi.

Ularga yuqoridan ko'rsatmalarni kutib ishlash, ma'suliyatni to'la xis etmaslik, imzo chekish va muxr bosishdagi e'tiborsizliklar, xo'jalikni yo'nalishini va xususiyatlarini inobatga olmay shartnoma namunasini ko'chirish, tuzilgan shartnomaning tegishli bandlarini to'la va batafsil to'ldirmaslik, maxsulot baxosini belgilashda uni ishlab chiqarish xarajatlarini aniq va to'la xisobga olmaslik, tomonlarning mulkiy javogarliligini belgilovchi xolatlarini shartnoma shartlariga qo'shmaslik va shartnoma shartlari buzilgan xollarda ularni qo'llamaslik, sotilgan maxsulot uchun xisob-kitoblarni o'z vaqtida amalga oshirmaslik, tomonlar o'rtasida solishtirma dalolatnomalarni tuzilmaslik, tomonlarni bozor qonuniyatlarini, xamda tegishli xuquqiy va me'yoriy xujjatlarni yaxshi bilmasligi kabi kamchiliklarni kiritish mumkin.

YUqoridagi kamchiliklarni bartaraf etish maqsadida Vazirlar Mahkamasining 4 setyabr 2003 yildagi «Qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishida shartnomaviy munosabatlarni takomillashtirish va majburiyatlar bajarilishi uchun tomonlarning javobgarligini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi 383-sonli qarorining 1 ilovasida «Qishloq xo'jaligi maxsulotlari yetishtiruvchilar bilan tayyorlov, xizmat ko'satish tashkilotlari o'rtasida shartnomalar tuzish, ularni ruyxatdan o'tkazish, bajarish, shuningdek ularning bajarilishi monitoringini olib borish tartibi to'g'risida» Nizom qabul qilindi. Nizomda umumiy qoidalar, shartnoma tuzish tartibi, shartnomani ro'yxatdan o'tkazish, tomonlarni xuquq va majburiyatlari, narx va xisob-kitoblar, shartnomani bajarish, shartnoma bajarish monitoringini olib borish va yakuniy qoidalar yoritilgan. Nizomni umumiy qoidalarida tomonlar o'rtasida shartnomani tuzish va ularni bajarilishi bo'yicha vujudga keladigan barcha munosabatlar tartibga solinadi. Ushbu Nizom qishloq xo'jaligida faoliyat ko'rsatayotgan tovar ishlab chiqaruvchilar bilan maxsulot tayyorlash, qayta ishlash, moddiy texnika resurslarini yetkazib berish, mexanizatsiya, servis, agrokimyo va boshqa xizmatlarni ko'rsatuvchi tashkilotlar o'rtasida tuzilgan kontraktatsiya shartnomalarga tadbiq etiladi.

Kontraktatsiya shartnomasi-qishloq xo'jalik maxsulotlarini, moddiy-texnika resurslarni belgilangan miqdorda, sifatda, o'z vaqtida yetkazib berish va ularga belgilangan yoki kelishilgan narxlarda xaq to'lashi ifodalab beradi. Davlat buyurtmasi mavjud bo'lgan ayrim turdagi maxsulotlar bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi xuzuridagi jamg'arma bilan shartnoma tuzilib, ular tuman, qishloq va suv xo'jalik bo'limlarida ro'yxatdan o'tkaziladi. Kontraktatsiya shartnomasi biznes reja ma'lumotlariga tayangan xolda tuzilib, unda barcha ko'rsatkichlar, xisob-kitoblar, muddatlar, majburiyatlar, tomonlarning mulkiy javobgarligi aniq va lo'nda qilib ko'rsatilib ikkala tomonning imzolari bilan

tasdiqlangan jadvallar ilova qilinadi. SHartnoma imzolangan kundan keyin uch kun ichida qishloq va suv xo'jalik bo'limida ro'yxtadan o'tkaziladi.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Maxkamasining 383 – sonli qarorida quyidagilar belgilangan:

-shartnoma majburiyatlarini tayyorlov va xizmat ko'rsatuvchi tashkilot bajarmagan taqdirda siz xo'jalik sudiga da'vo arizasi kiritsangiz davlat boji to'lashdan ozodsiz;

-xuddi shu holatda sizning manfaatingizni ko'zlab tuman qishloq va suv xo'jaligi bo'limlari tomonidan da'vo arizasi bilan murojaat qilinsa ham davlat boji to'lanmaydi.

Har bir fermer quyidagilarni bilishi shart!

1. Konraktatsiya shartnomalari, shuningdek, moddiy-texnika resurslari yetkazib berish va xizmatlar ko'rsatish (ishlarni bajarish) yuzasidan tuzilgan shartnomalar xo'jaliklarning biznes-rejalarida nazarda tutilgan x'ajmlardan kelib chiqqan holda, agrotexnika tadbirlarini amalga oshirish boshlanishidan bir oy oldin, lekin kalendar yil boshlanishidan kechikmay tuziladi.

2. SHartnomalarni tuzishda tomonlar tegishli turdagi shartnomalar uchun ishlab chiqilgan aloxida namunaviy shakllarga amal qilishi mumkin.

3. SHartnomalarda quyidagilar ko'rsatiladi:

shartnomaning mavzusi, mahsulotning nomi, assortimenti, miqdori (xajmi), sifati, narxi (turlari bo'yicha);

shartnomaning umumiy summasi;

tomonlarning huquqlari va o'zaro majburiyatlari;

mahsulotlarni yetkazib berish tartibi va shartlari, topshirish-qabul qilib olish (ishlarni bajarish, xizmatlar ko'rsatish) kunktlari va davrlari (muddatlari);

-idishga, markirovka qilishga, urash-joylashga kuyiladigan talablar;

-hisob-kitob tartibi, shakli va muddatlari, tomonlarning to'lov, pochta va yuklab jujnatish rekvizitlari;

-shartnoma majburiyatlari bajarilmaganligi yoki zarur darajada bajarilmaganligi uchun tomonlarning mulkiy javobgarligi;

-nizolarni, fors-major holatlarni hal Tish tartibi, tomonlarning rekvizitlari, shartnoma tuzilgan sana va joy.

Davlat extiyojlari uchun qishloq xo'jaligi mahsulotlari harid qilish yuzasidan tuziladigan kontraktatsiya shartnomalarida davlat extiyojlari uchun harid qilinadigan hamda xo'jaliklari ixtiyorida koladigan mahsulotlarning osorti va miqdori ham ko'rsatiladi.

4. SHartnomalarga, shuningdek, arik turdagi shartnomalar uchun yoki ularga nisbatan tomonlardan birining arizasiga ko'ra yoxud qonunchilikka muvofiq kelishuvga erilishi kerak bo'lgan shartnomalar uchun nazarda tutilgan boshqa muhim shartlar ham kiritilish mumkin.

5. SHartnomaga qishloq xo'jaligi mahsulotlari, moddiy-texnika rusurslari yetkazib berish va xizmatlar ko'rsatish (ishlarni bajarish) muddatlari, miqdori va

assortimentini belgilovchi ikala tomonning imzosi bilan tasdiqlangan hamda shartnomaning tarkibiy qismi hisoblanadi jadval ilova qilinadi.

6. Qishloq xo'jaligi tovar ishlab chiqaruvchisining bevosita joylashgan joyidagi tayyorlov va xizmat ko'rsatish tashkilotlari agrotexnika chora-tadbirlarini amalga oshirishdan bir oy oldin shartnoma tuzish uchun xo'jalikka uzining vakolatli vaqilini yuborishi kerak.

7. Xo'jalik shartnoma loyixasi tayyorlov yoki xizmat ko'rsatish tashkiloti vakilidan olingan vaqtdan boshlab 7 kun mobaynida uni ko'rib chiqishi va e'tirozlar bo'lmagan taqdirda loyixani imzolashi va tayyorlovchiga kaytarishi shart.

Xo'jalikda shartnoma loyixasi shartlari bo'yicha e'tirozlar paydo bo'lgan taqdirda xo'jalik yuqorida ko'rsatilgan muddatlarda kelishmovchiliklar to'g'risida protokol tuzadi va uni tayyorlov yoki xizmat ko'rsatish tashkilotiga jo'natadi, bu to'g'rida tuman qishloq va suv xo'jaligi bo'limini xabardor kiladi.

8. Tayyorlov va xizmat ko'rsatish tashkiloti kelishmovchiliklar to'g'risidagi protokol olingan vaqtdan boshlab 7 kun mobaynida uni (zarurat bo'lganda tuman qishloq va suv xo'jaligi bo'limi vakili bilan birgalikda) ko'rib chiqishi va uning natijalari bo'yicha takliflarni shartnoma loyixasiga kiritishi yoxud hal jetilmagan kelishmovchiliklarni xudi shu muddatlarda ko'rib chiqishi uchun tegishli xo'jalik sudiga berishi shart.

9. Kelishmovchiliklar to'g'risidagi protokol qabul qilinmaganda yoki uni ko'rib chiqish natijalari to'g'risida o'z vaqtida xabardor qilinmaganda xo'jalik nizomi ko'rib chiqish uchun sudga berishga xaklidir.

Har bir fermer har qanday shartnomani o'qimasdan, shartnomada ko'rsatilgan huquq va majburiyatlarning to'liq mohiyatiga yetmasdan shoshma-shosharlik bilan imzo chekmang!

CHunki har bir fermerning ixtiyorida 7 kun muddat bor.

Quyidagilarni har bir fermer bilib qo'ysa, foydadan holi bo'lmaydi:

1. SHartnoma tomonlardan har biri va tuman qishloq va suv xo'jaligi bo'limi uchun bir nusxadan tuziladi. SHartnomaning barcha nushalari bir xil yuridik kuchga ega bo'ladi.

2. Tayyorlov va xizmat ko'rsatish tashkilotlari xo'jaliklari bilan shartnomalarning o'z vaqtida tuzilishi uchun javob buradi.

3. Tuzilgan shartnoma imzolangan vaqtdan boshlab 3 kun mobaynida tayyorlov yoki xizmat ko'rsatish tashkilotlari tomonidan tuman qishloq va suv xo'jaligi bo'limiga ro'yxatdan o'tkazish uchun takdim etiladi.

Ro'yxatdan o'tkazish uchun takdim etilgan shartnomalrni ko'rib chiksh tuman qishloq va suv xo'jaligi bo'limi tomonidan 3 ish kuni mobaynida amalga oshiriladi.

SHartnomalarni ro'yxatdan o'tkazishda qo'shimcha hujjatlar yoki to'lov talab qilishga yul kuyilmaydi.

4. SHartnoma:

Uning amaldagi qonun hujjatlariga muvofiqligi;

Xizmat ko'rsatish tashkilotlari tomonidan narx bo'yicha tartibga solinishi kerak bo'lgan mahsulotlari (ishlar, xizmatlar) narxlarning oshirib yuborilishi yuzasidan tekshiriladi.

5. SHartnoma kuyiladigan talablarga muvofiq bo'lgan taqdirda tuman qishloq va suv xo'jaligi bo'limi uni belgilangan tartibda ro'yxatdan o'tkazadi. SHartnomaning barcha nushalariga ro'yxatdan o'tkazilganlik to'g'risida belgi kuyiladi, tuman qishloq va suv xo'jaligi bo'limi hodimi tomonidan imzolanadi, imzo, muxr bilan tasdiqlanadi.

Tuman qishloq va suv xo'jaligi bo'limi hodimlari ro'yxatdan o'tkazishning to'g'riligi uchun javob beradi.

SHartnomada belgilangan talablarga muvofiq bo'lmagan taqdirda ro'yxatdan o'tkazishni rad etish aniq sabablar ko'rsatilgan holda yozma shaklda rasmiylashtiriladi.

SHartnomani ro'yxatdan o'tkazish rad tilgan taqdirda tayyorlov va xizmat ko'rsatish tashkilotlari shartnoma puxtalashtirilgandan keyin 3 kun muddatda uni takror takdim tishlari shart.

6. Tuman qishloq va suv xo'jaligi bo'limlarida SHartnomalarni ro'yxatdan o'tkazish daftarlari yuritiladi, ularda quyidagi ma'lumotlar mavjud bo'ladi:

SHartnomaning ro'yxatdan o'tkazish tartib raqami;

SHartnoma tuzilgan sana;

SHartnoma ro'yxatdan o'tkazilgan sana;

SHartnomaning tomonlari;

Etkazib beriladigan max'sulotlar va ko'rsatiladigan ximzmatlar (bajarilgan ishlar) turlari va miqdori (xajmlari);

SHartnoma summasi;

Ro'yxatdan o'tkazilgan shartnomani olgan shaxsning imzosi va sana.

7. SHartnoma ro'yxatdan o'tkazilgan taqdirda tayyorlov va xizmat ko'rsatish tashkilotlari shartnoma ro'yxatdan o'tkazilgan kundan boshlab ikki kun muddatda xo'jaliklarga ro'yxatdan o'tkazilgan shartnomaning bir nusxasini jo'natishlari shart.

SHartnomani ro'yxatdan o'tkazish rad etilgan taqdirda tayyorlov va xizmat ko'rsatish tashkilotlari bu haqda xo'jalikni rad etish sabablarini ko'rsatgan holda rad etish hujjatini olgan kundan boshlab 2 kun muddatda xabardor qilishi shart.

8. Ro'yxatdan o'tkazilgan shartnomaga kiritilgan o'zgartirish va qo'shimchalar shartnoma bilan bo'lgan tartibda rasmiylashtiriladi va ular tuman qishloq va suv xo'jaligi bo'limlarida ro'yxatdan o'tkazilgandan keyin bajarilishi kerak.

9. SHartnomaning tomonlarda hamda tuman qishloq va suv xo'jaligi bo'limida qoladigan nushalar tomonlar shartnoma majburiyatlarining hammasini bajargan vaqtdan boshlab uch yil mobaynida saqlanadi.

Eslatma! Siz Ushbu bo'limda quyidagilarni bilib oldingiz:

- shartnoma majburiyatlarini tayyorlov yoki xizmat ko'rsatuvchi korxona bajarmagan taqdirda fermer xo'jaligi yoki uning manfaatini kuzlab tuman qishloq va suv xo'jaligi bo'limi tomonidan sudga da'vo arizasi kiritilsa davlat boji to'lanmaydi;

- fermer xo'jaligi shartnoma loyixasini olgandan keyin uni ko'rib chiqish va e'tirozi bo'lsa, hal qilish uchun 7 kun muddat beriladi;

-shartnomalar agrotexnika tadbirlari boshlanishidan bir oy oldin tuziladi va uni o'z vaqtida tuzili, ro'yxatdan o'tkazish uchun tayyorlov hamda xizmat ko'rsatuvchi tashkilot javobgar;

-shartnomalar tomonlar imzolanganidan sung 3 kun muddatda tuman qishloq va suv xo'jaligi bo'limiga takdim etilishi hamda 3 ish kuni davomida ro'yxatdan o'tkazilishi shart;

-shartnomalarni ro'yxatdan o'tkazilgandan keyin 2 kun ichida fermer xo'jaliklariga yetkazish lozim.

Tayyorlov korxonalari bilan o'zaro munosabatlar

Qishloq xo'jaligi mahsulotini sotib olish bo'yicha tuzilgan shartnoma – kontraktatsiya shartnomasi deyiladi. Siz yuqorida shartnomalarni tuzi shva ro'yxatdan o'tkazish tartibi bo'yicha umumiy tushunchaga ega bo'ldingiz. Endi tayyorlov korxonalari bilan shartnomalar tuzish, uni bajarishda nimalarga e'tibor berish lozimligini ko'rib chikamiz.

Avvalo, bu borada fermer xo'jaligi rahbari qanday huquq va majburiyatlarga ega ekanligini aniq bilan shart bo'ladi.

Fermer xo'jaligining huquqlari:

-shartnomada nazarda tutilgan hollarda tayyorlov tashkilotidan urug' va ekimsh materiallari bilan taxminlashni talab qilish;

-mahsulotni topshirishda, -ning sifatini aniqlashda qatnashish va tayyorlov tashkilotidan mahsulot uchun tegishli to'lovni talab qilish;

-tayyorlov tashkilotidan mahsulot yetishtirish uchun shartnomada belgilangan muddatlarda va miqdorda avans to'lanishini talab qilish;

-tayyorlov va xizmat ko'rsatish tashkilotidan amaldagi davlat standartlari va shartnomani bajarish uchun zarur bo'lgan boshqa normativ hujjatlar bilan ta'minlashni talab qilish;

-tayyorlov va xizmat ko'rsatish tashkilotidan mahsulot xo'jalik hisobidan tashilganda transport harajatlarini qoplanishini talab qilish;

-tayyorlov va xizmat ko'rsatish tashkilotidan shartnoma shartlarini bajarmaslik yoki zarur darajada bajarmaslik natijasida yetkazilgan zarar qoplanishini talab qilish.

Fermer xo'jaligining majburiyatlari:

-mahsulotning muayyan turlarini tayyorlovchi tashkilotga shartnomada belgilangan miqdorlarda va assortimentda hamda muddatlarda tegishli sifat bilan yetkazib berish;

-ilova qilinayotgan hujjatlarni to'g'ri rasmiylashtirish va mahsulotni topshirishda kuyiladigan boshqa talablarga (idishga joylash, kadoklash, koramollarni tamgalash va boshqalarga) rioya etish;

-mahsulotni tayyorlov tashkilotiga topshirish uchun o'z vaqtida tayyorlash.

Tayyorlov korxonasining huquqlari:

-tasdiqlangan jadvalga muvofiq shartnomada belgilangan muddatlarda mahsulotlarning muayyan turlarini belgilangan miqdorlarda va assortimentda tegishli sifat bilan o'z vaqtida topshirishni talab qilish;

-qishloq xo'jalik mahsulotlari avans summasida nazarda tutilgan xajmlarda topshirilmagan taqdirda tuzilgan shartnomaga muvofiq ilgari berilgan avans mablaglari qoplanishini xo'jaliklardan talab qilish.

Tayyorlov korxonasining majburiyatlari:

-qonun hujjatlariga muvofiq xo'jaliklar bilan tomonlar kelishgan xajmlarda o'z vaqtida shartnomalar tuzish;

-xo'jaliklarga shartnomalarda belgilangan davrlarda, qishloq xo'jaligi mahsulotlari yetishtirish muddatlariga muvofiq mahsulotlar qiymatining kamida 50 foiz miqdorida (chorvachilik mahsulotlari bo'yicha – shartnomalarda ko'rsatilgan xajmlar qiymatining 25 foizi miqdorida) avans mablaglari to'lash;

-harid qilinadigan mahsulotning vazni va sifatini to'g'ri aniqlash;

-xo'jaliklar tomonidan yetkazib beriladigan kisholk xo'jaligi mahsulotlarini shartnomada nazarda tutilgan miqdorlarda va muddatlarda harid qilish, ularning uzluksiz qabul qilib olinishini ta'minlash;

-xo'jaliklar ixtiyorida koladigan mahsulotlarni shartnomada nazarda tutilgan hollarda davlat standartlari va texnik shartlar talabalariga muvofiq saqlash hamda ularning holati to'g'risida xo'jaliklarga muntazam ravishda xabar qilib turish;

-xo'jaliklar ixtiyorida koldiriladigan mahsulotlar sifatining yomonlashishi oqibatida xo'jaliklarga yetkazilgan zararni qoplash;

-agar shartnomada uzgacha holl naazarda tutilmagan bo'lsa, kishok xo'jaligi mahsulotlarini kelishilgan jadvalga muvofiq qabul qilib olishni va tashishini taxminlash;

-harid qilinayotgan mahsulot sifatini amaldagi standartlar talabalariga muvofiq aniqlash, shartnomada belgilangan narxlarga muvofiq va muddatlarda mahsulot uchun hisob-kitob qilish;

-qishloq xo'jaligi mahsulotlarini saqlash, tayyorlash, tashish va kayta ishlashda ular nobud bo'lishining oldini olish;

-mahsulotlarni amaldagi standartlarga muvofiq kayta ishlash, sotishga tayyorlash va ularni sotishga taallukli hujjatlarni rasmiylashtirish;

-xo'jaliklarni idishlar, o'rash materiallari va normativ-texnik hujjatlar (standartlar, texnik shartlar, mahsulotlarning ayrim turlarini harid qilish, qabul

qilib olish, sifatini baholash tartibini tartibga soluvchi qoidalar) bilan shartnomallarga muvofiq ta'minlash;

-shartnomalarda nazarda tutilgan hollarda xo'jaliklarni urug'lik va ekish materiallari bilan ta'minlash;

-qishloq xo'jaligi mahsulotlari tayyorlov tashkiloti joylashgan joyda yoki ular ko'rsatgan boshqa joyda qabul qilib olingan taqdirda xo'jaliklar tomondan kontraktatsiya shartnomasiga muvofiq yetkazib berilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlarini belgilangan muddatlarda qabul qilib olish

YUqorida fermerning va tayyorlov korxonasining huquq va majburiyatlari keltirildi.

Tayyorlov korxonasidan majburiyatlarni talab qilishdan avval o'z majburiyatlaringizni bekamu-kust bajarib kuyishingiz va kerak bo'lganda o'z huquqlaringiz doirasida harakat qilishingiz maksadga muvofiq bo'ladi.

Har bir fermer quyidagilarni bilishi kerak!

1. Mahsulotni tashish va tushirish bo'yicha barcha harajatlar tayyorlov korxonasi zimmasida bo'ladi.

Mahsulot xo'jalik transportida yetkazib berilsa, tayyorlov va xizmat ko'rsatish tashkilotlari xo'jalikka mahsulotni tashish harajatlarining haqiqiy vazni (idishni ham kushib) bo'yicha qoplaydi.

2. Mahsulotni tashish harajatlari butun masofa uchun qoplanadi. Kontraktatsiya shartnomalari bo'yicha harajatlar mahsulot xo'jalikdan jo'natilgan joydan boshlab (saralash punkti, brigada, bo'lim, chorvachilik fermasi, yaylov, markaziy-ombor, xo'jalikning markaziy kurgoni va xokazolar) shartnomada nazarda tutilgan qabul qilish punktigacha qoplanadi.

3. Xo'jaliklarning transportda tashish va tushirish harajatlari qonun hujjatlariga muvofiq tasdiqlangan normalar va tariflab bo'yicha yoxud tomonlarning kelishuviga ko'ra belgilanadi.

4. Tayyorlov korxonasining qo'shimcha talablariga rioya kilgan holda masxulot jo'natish bilan bog'liq shartnomada belgilanmagan harajatlar tegishli ravishda tayyorlovchi hisobiga to'lanadi.

5. Tayyorlov tashkiloti tomonidan standart talablariga muvofiq bo'lmagan, shuningdek, konditsiyaga muvofiq bo'lmagan mahsulot qabul qilingan taqdirda qo'shimcha ravishda sortlarga ajratish tayyorlovchi tomonidan bajariladi, ishlarni bajarish bo'yicha harajatlar esa qo'shimcha bitim bo'yicha qoplanadi.

SHartnomalarni bajarishning asosiy jihatlarini bilib kuying!

1. SHartnomada mahsulot yetkazib berishning davrlari belgilanishi bilan birgalikda tovarlarni yetkazib berish jadvallari ham (o'n kunlik, sutkalik va boshqalar) nazarda tutilishi mumkin.

2. Xo'jalik tomonidan mahsulot tayyorlov tashkilotiga jo'natilganda (etkazib berilganda) mahsulotga belgilangan shakldagi hujjatlar ilova qilinishi, mahsulot

tayyorlov tashkiloti tomonidan bevosita xo'jalikning o'zida qabul qilib olingan taqdirda, qabul qilish-topshirish hujjatlari ilova qilinishi kerak.

3. Xo'jalik tomonidan tayyorlov tashkilotiga shartnomaga muvofiq yetkazib beriladigan qishloq xo'jaligi mahsulotlari davlat standartlari talablariga, texnik shartlarga, veterinariya va sanitariya nazorati qoidalariga muvofiq bo'lishi kerak.

4. Tayyorlov tashkiloti xo'jaliklardan shartnomada nazarda tutilgan xajmlardan ortiqcha yetishtirilgan mahsulotni fakat qo'shimcha bitim asosida qabul qilishi mumkin. Xo'jalik bilan tuziladigan qo'shimcha bitim yozma shaklda rasmiylashtirilishi, tuman qishloq va suv xo'jaligi bo'limida ro'yxatdan o'tkazilishi kerak.

5. Tayyorlov tashkiloti bilan kelishgan holda xo'jalik mahsulotni keyingi topshirish davri hisobiga o'tkazgan holda muddatidan oldin topshirishi mumkin.

6. SHartnoma majburiyatlarini bajarishda harid qilinayotgan qishloq xo'jaligi mahsulotining sifati va miqdorini baholash uning uchun haq o'z vaqtida vat ugri to'lanishi bo'yicha paydo bo'lgan taqdirda, bunday masalalar va kelishmovchiliklar tuman qishloq va suv xo'jaligi bo'limi tomonidan sudgacha bo'lgan tartibda yoki xo'jalik sudi tomonidan hal etiladi.

7. Mahsulot qabul qilinishi rad etilganda tayyorlov tashkiloti rad etish x'olati to'g'risida xo'jalikni yozma shaklda xabardor qilishi shart (tovar-transport yuk xatiga belgi kuyish, telegraf orkali va boshqalar). Agar tayyorlov tashkiloti mahsulotni qabul qilish rad etilishi to'g'risida yozma ariza berishdan bosh tortsa, u holda xo'jalik tuman qishloq va suv xo'jaligi bo'limi vakili ishtirokida rad etish holatinitasdiqlovchi dalolatnoma tuzadi.

8. Tayyorlov tashkiloti shartnomaga va topshirish-qabul qilishning kelishilgan jadvaliga muvofiq tayyorlovchiga takdim etilgan tez buziladigan mahsulotni qabul qilishni rad etgan taqdirda, xo'jalik Ushbu mazsulotni o'z ixtiyoriga ko'ra boshqa shaxslarga sotishi mumkin.

Bunda tayyorlov tashkilotlari mahsulotni qabul qilish rad etilganligi uchun mulkiy javobgarlikdan ozod etilmaydi.

Biz ilovada Vazirlar Maxkamasining 476-sonli qarori bilan tasdiqlangan «Namunaviy kontraktatsiya shartnomasi»ni keltiramiz. Bu namunaviy shartnoma biror aniq mahsulot turi va aniq shart-sharoitlar xususiyatlarini hisobga olgan holda moslashtirib tuziladi.

Eslatma! Tayyorlov korxonalari bilan shartnomalar tuzishda va ularni bajarishda quyidagilarga e'tibor berish kerak:

- shartnomada nazarda tutilgan xzollarda tayyorlov tashkilotlari urug'lik, ekish materiallari, belgilangan muddatlarda avans to'lanishini, mahsulot xo'jalik hisobidan tashilganda transport harajatlarining to'lanishini talab qilish;
- shartnomada belgilangan muddatda, assortiment, miqdor va sifatda mahsulot yetkazib berishni ta'minlash;
- shartnomada nazarda tutilgan xajmlardan ortiqcha yetishtirilganmahsulotni fakat qo'shimcha bitim asosida qabul qilish lozim;

- tayyorlov korxonasi tez buziluvchi mahsulotlarni qabul qilishni rad etganligi haqda fermer xo'jaligi Ushbu mahsulotni o'z ixtiyoriga ko'ra boshqa shaxslarga sotishi mumkin, lekin bunda tayyorlovchi tashkilot mulkiy javobgarlikdan ozod etilmaydi.

Nazorat va takrorlash uchun savollar:

1. Tayyorlov tashkilotlari bilan kontraktatsiya shartnomalarini tuzish qaysi muddatlarda amalga oshiriladi?

2. Kontraktatsiya shartnomalarini tuzishda tuman qishloq va suv xo'jaligi bo'limi hodimlari qanday vazifalarni bajaradi?

3. Kontraktatsiya shartnomalarida tayyorlov korxonasining qanday majburiyatlari bor?

4. Kontraktatsiya shartnomalarida fermerning majburiyatlari nimalardan iborat?

5. Mahsulotni tashish harajatlari qanday to'lanadi?

7-mavzu: SHartnomalarning bajarilishini monitoring qilish tartibi va umumiy javobgarlik

Reja:

1. SHartnomalarning bajarilishida tomonlarning mulkiy javobgarligi
2. SHartnomalar tuzish, ularni ro'yxatdan o'tkazish bosqichlari
3. SHartnoma intizomi.

SHartnomalarning bajarilishini monitoring qilish tartibi va umumiy javobgarlik O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Maxkamasining «Qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishida shartnomaviy munosabatlarni takomillashtirish va majburiyatlarning bajarilishi uchun tomonlarning javobgarligirni oshirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi 2003 yil 4sentyabrdagi 383-sonli Qarori bilan tartibga solinadi.

Fermer xo'jaliklari amaliyotda shartnoma tuzishda va ularni bajarishda kup xatoliklarga yul kuyadilar. Jumladan, shartnomani o'qimasdan imzo chekish, haqiqatda esa uzi haq bo'lgan holda huquqiy bilimining zaifligi uchun murosaga borishi va boshqalar.

SHartnomalarning bajarilishi jarayonida quyidagi holatlarni yaxshi bilish talab etiladi.

Kontraktatsiya shartnomalarini bajarishda:

1. Qishloq xo'jaligi mahsulotlarini kongtraktatsiya shartnomasida belgilangan assortiment va turlarda, muddatlarda topshirishdan asossiz buyin tovlagan xo'jalik tayyorlovchiga tomshirilmagan mahsulot qiymatining 25 foizi miqdorida jarima to'laydi. Jarima miqdori o'tgan davr (oy, chorak, yil) da mahsulotning shakllangan o'rtacha narxidan kelib chiqib, harid narxlariga

belgilangan ustamalar to'lashni hisobga olmasdan hisoblab chiqiladi. bundan tashqari, zararning mahsulot yetkazib berilmaganligi tufayli yuzaga kelgan, jarima bilan qoplanmagan qismi ham to'lanadi.

2. Qishloq xo'jalik mahsulotini kontraktatsiya shartnomasida belgilangan assortiment, turlar va muddatlarda qabul qilib olish rad etilgan har bir holat uchun tayyorlov tashkiloti xo'jalikka belgilangan ustamalar to'lashni hisobga olmasdan shakllangan o'rtacha narxdan kelib chikib, qabul qilinmagan mahsulot qiymatining 25 foizi miqdorida jarima to'laydi. Bundan tashqari, mahsulotni qabul qilishni rad etilganligi tufayli xo'jalik ko'rgan zararni jarima bilan qoplanmagan qismi ham to'lanadi.

3. Xo'jalikning standartlar talablari va texnik shartlarga javob beradigan, mahsulotning tegishli turlarini harid qilishni tartibga soluvchi yuriknomalar va qoidalarda yoki kontraktatsiya shartnomasida belgilangan miqdorda va muddatlarda idish va urash materiallari bilan ta'minlanmaganligi uchun materiallarining yetkazib berilmaganidish, urash materiallarining yetkazib berish vaqtida amalda bo'lgan qiymatining 2 baravari miqdorida jarima to'laydi. Tayyorlovchining xo'jalikni idish bilan ta'minlanmaganligi mahsulot sifatining pasayishiga yoki tez buziluvchi mahsulotning buzilishiga olib kelgan bo'lsa, tayyorlov tashkiloti xo'jalikka ko'rilgan zararning jarima bilan qoplanmagan qismini ham to'laydi. Bunda xo'jalik sifatsiz qishloq xo'jaligi mahsulotlari yetkazib berilganligi uchun javobgarlikdan ozod qilinadi.

Moddiy-texnika resurslari yetkazib berish va xizmat ko'rsatish shartnomalarini bajarishda:

4. Moddiy-texnika resurslari yetkazib berish va xizmatlar ko'rsatish bo'yicha shartnomada nazarda tutilgan majburiyatlar bajarilishi rad etilganligi uchun xizmat ko'rsatuvchi tashkilot xo'jalikka belgilangan ustamalardan tashqari yetkazib berilmagan moddiy-texnika resurslari yoki ko'rsatilishi kerak bo'lgan xizmatlar qiymatining 25 foizi miqdorida jarima to'laydi. Jarimadan tashqari xizmat ko'rsatuvchi tashkilot xo'jalikka moddiy-texnika resurslari yetkazib berilmaganligi, ishlar bajarilmaganligi yoki xizmatlar ko'rsatilmaganligi natijasida yetkazilgan zararni to'laydi

5. Etkazib berish muddati kechiktirilgan, tovarlar yetkazib berilmagan, ishlar bajarilmagan yoki xizmatlar ko'rsatilmagantaqdirda xizmat ko'rsatuvchi tashkilot xo'jalikka muddati o'tkazib yuborilgan har bir kun uchun majburiyatlarning bajarilmagan qismining 0,5 foizi miqdorida penya to'laydi, birok penyaning umumiy summasi yetkazib berilmagan tovarlar, bajarilmagan ishlar yoki ko'rsatilmagan xizmatlar qiymatining 50 foizidan ortiq bo'lmasligi kerak. Penya to'lanishi shartnoma majburiyatlarini buzgan tomonni shartnomaning zarur darajada bajarilishidan va yetkazib berish kechiktirilganligi, tovarlar to'liq yetkazib berilmaganligi, ishlar bajarilmaganligi yoki xizmatlar ko'rsatilmaganligi tufayli yetkazilgan zararlar qoplanishidan ozod kilmaydi.

6. Xizmat ko'rsatish tashkilotlarining aybi bilan xo'jaliklar tomonidan kontraktatsiya shartnomalari bajarilmasligi (zarur darajada bajarilmasligi)

natijasida yetkazilgan zarar Ushbu tashkilotlar tomonidan belgilangan tartibda qoplanadi.

SHartnoma bajarilishida umumiy holatlardagi javobgarlik:

7. Tomonlar o'rtasida kelishilgan jadvalga muvofiq kelgan transportning belgilangan muddatdan ortiqcha bekor turib kolganligi uchun aybdon tomon bekor turib kolish bilan bog'liq harajatlarni to'laydi. Bekor turib kolish vaqti tomonlar o'rtasida imzolangan dalolatnomaga muvofiq rasmiylashtiriladi.

8. Tovar-transport hujjatini rasmiylashtirishni rad kilganligi yoki noto'g'ri rasmiylashtirilganligi uchun aybdor tomon boshqa tomonga tovar-transport hujjatini rasmiylashtirishni rad kilganligi yoki noto'g'ri rasmiylashtirilganligining har bir holati uchun kam oylik ish haqi miqdorida jarima to'laydi. YUklab jo'natilgan tovarlarga to'lov yoki tovar-transport hujjatining nusxasi belgilangan muddatda yuborilmaganligi yoki tovarlar yuklab jo'natilganligi to'g'risida boshqa axborot takdim kilmaganligi uchun aybdor tomon har bir holat uchun tovar qiymatining 1 foizi miqdorida jarima to'laydi.

9. Zilzila, qurg'oqchilik, suv toshqini, yong'in va boshqa tabiiy ofatlar natijasida oldindan ko'rish va bartaraf etish mumkin bo'lmagan holatlar (fors-major holatlar) munosabati bilan ularning irodasi va xoxishiga bog'liq bo'lmagan sabablar bo'yicha o'z zimmalariga olgan shartnoma majburiyatlari bajarilmaganligi uchun bir tomon boshqa tomon oldida javob bermaydi.

10. Tomonlarning kelishuviga ko'ra shartnomada shartnoma majburiyatlari bajarilmasligi yoki zarur darajada bajarilmasligi uchun javobgarlikning amaldagi qonun hujjatlariga zid bo'lmagan boshqa choralari ham nazarda tutilishi mumkin.

Eslatma! Ushbu bo'limda Siz shartnomalarning bajarilishida tomonlarning mulkiy javobgarligi to'g'risida tushunchaga ega bo'ldingiz, jumladan:

-qishloq xo'jalik mahsulotlarini shartnomada belgilangan assortiment va turlarda, muddatlarda topshirishdan buyin tovlagan fermer xo'jaligi yoki aksincha qabul kilmagan tayyorlovchi tashkilot mahsulot qiymatining 25 foizi miqdorida jarima to'laydi;

-xizmat ko'rsatuvchi va moddiy-texnika yetkazib beruvchi tashkilotlar shartnomada ko'rsatilgan majburiyatlarni bajarishni rad etganligi uchun ko'rsatishi kerak bo'lgan xizmat (tovar)lar qiymatining 25 foizi miqdorida jarima to'lash bilan birga yetkazilgan zararni qoplashi shart;

-muddati kechiktirilgan har bir kun uchun xizmatlar qiymatining 0,5 foizi miqdorida penya to'laydi, lekin bu penya miqdori ko'rsatilmagan xizmatlar qiymatining 80 foizidan oshmasligi lozim;

-tayyorlovchi tashkilotga fermer xo'jaligi tomonidan mahsulot yetkazib berish majburiyatlari bajarilmasligida xizmat ko'rsatuvchi va moddiy-texnika resurslarini yetkazib beruvchi tashkilotlar aybdor bo'lsa, qonun tartibida javobgarlikka toriladi.

Qishloq xo'jaligi mahsulotlari yetishtiruvchilar va tayyorlov, xizmat ko'rsatuvchi tashkilotlar o'rtasida shartnomalar tuzish, ularni ro'yxatdan o'tkazish bosqichlari

Bosqichlar	Tadbirlar	Bajarish muddatlari	Mas'ullar
1-bosqich	SHartnomalar tuzishga tayyorgarlik ko'rish	Agrotexnika tadbirlari boshlanishidan bir oy oldin	Tayyorlov, xizmat ko'rsatuvchi va boshqa tashkilotlar
2-bosqich	SHartnomalarni ko'rib chiqish va imzolash	7 kun mobaynida	Qishloq xo'jaligi korxonalari
3-bosqich	SHartnomalarni ro'yxatdan o'tkazish uchun berish	3 kun mobaynida	Tayyorlov, xizmat ko'rsatuvchi va boshqa tashkilotlar
4-bosqich	SHartnomalarni ro'yxatdan o'tkazish	3 ish kuni mobaynida	Qishloq va suv xo'jaligi bo'limlari
5-bosqich	SHartnomalarni ro'yxatdan o'tkazgandan keyin tayyorlov, xizmat ko'rsatuvchi va boshqa tashkilotlarga berish	Ro'yxatdan o'tkazilgandan keyin 1 kun mobaynida	Qishloq va suv xo'jaligi bo'limlari
6-bosqich	Ro'yxatdan o'tkazilgan shartnomalarni xo'jaliklarga berish	Ro'yxatdan o'tkazilgandan keyin 2 kun mobaynida	Tayyorlov, xizmat ko'rsatuvchi va boshqa tashkilotlar
7-bosqich	SHartnomalarni saqlash	Barcha shartnoma shartlari bajarilgandan keyin 3 yil mobaynida	Tayyorlov, xizmat ko'rsatuvchi va boshqa tashkilotlar

SHartnoma intizomi uchta talabni uz ichiga kamrab oladi: birinchidan, xakikiy (real) bajarilishini, ikkinchidan, konikarli va yetarli darajada bajarilishi yoki ijro etilishini, uchinchidan, shartnomaning bekor kilinmasligini.

Xakikiy bajarilishi yoki ijro etilishi tom ma'noda ijro etilishini anglatadi. Masalan, maxsulot yetkazib berish shartnoma-sida- bu xaridorga kelishilgan maxsulotni yetkazib berish; kapital kurilishi buyicha pudrat shartnomasida bu ob'ektning pudratchi tomonidan buyurtmachiga topshirish, turli ishlarni bajarish buyicha shartnomalarda esa ularni amalga oshirish, tashib berish shartnoma-larida esa -maxsulotni belgilangan joyga eltib, tegishli topshirish va x.k.

Barcha xujalik shartnomalari koplanish sifatida ega bulib, odatda bu ikki yoklama xarakterga egadir. Anikrogi, bunda xar ikki ishtirokchi bir vaktning uzida xam xukuklar, xam majburiyatlarning egasi sifatida yuzaga chikishadi. Bu jixatdan, uz navbatida, xaridor, buyurtmachi tomonidan ularga tegishli bulgan majburiyatlarni bajarish muxim axamiyatga ega. Anikrogi, ular olingan maxsulot

uchun uz vaktida pul tulashi, bajarilgan ishlar uchun xam tulovni uz vaktida amalga oshirishlari kerak. Bu majburiyatlarning amalga oshirilishini ta'minlash uchun esa kupincha zararlarni koplash, jarimalar solish kabilarni belgilash amalga oshiriladi. Lekin kupincha, bu jarimalar summasi belgilangan maxsulotni naturada yetkazib berishdan kuchsizrok bulgani sababli, shartnomada belgilangan majburiyatlar bajarilmay koladi.

SHartnomalarning yetarli darajada bajarilishi deganda esa majburiyatlarning bajarilishini ularning mazmuniga kat'iy mos ravishda ta'minlash tushuniladi. SHunday kilib, xakikiy bajarilish nima kilish kerak" ligini aniklasa, yetarli darajada bajaril ishi esa "kanday" bajarish kerak ekanligini anglatadi. Fukarolik Kodeksi va boshka me'eriylar xujjatlarda yetarli darajada bajarish shartlari belgilab kuyilgan. Ularga binoan yetarli, yeki tegishli darajada bajarilishi uchun u tegishli shaxslar tomonidan, tegishli usullar bilan, belgilangan davr va belgilangan joyda, belgilangan predmeti bilan amalga oshirilishi kerak.

SHunday kilib, shartnomalar bajarilishi ikki nukta nazardan baxolanar ekan: u real va tegishli tarzda bulishi kerak. SHu sababli tegishli fukarolik xukukiy burchlar xakidagi koidalarda bu ikkala jixat uchun kullaniladigan iktisodiy chora-tadbirlar bir biridan chegaralab kuyilgan.

SHartnomalarning bekor kilinmasligi, ya'ni shartnomalarning kat'iyligi "shartnomalar bajarilishi shart" degan degan kadim Rim xukukidagi tamoyilga asoslangandir. Bekor kilinmaslik shartnoma-larning uzgarishiga va bekor kilinishiga fakat ikki tomon xoxish-irodasi bilan yul kuyish mumkinligini anglatadi. Aynan shu talab kolgan ikkita talabning, ya'ni real va tegishli tarzda bajari-lishining kafolati bulib yuzaga chikadi. Bu ikkala talab xam xech bir tomon uchun mustakil ravishda shartnomani uzgartirish xukuki berilmaganligi sababli ma'lum bir darajada axamiyatga ega.

Real bajarilishi talabining axamiyati shundaki, xar ikki tomon xam fakat shu xoldagina kuyilgan maksadga erishishi mumkin. Uning bajarilishi uchun tegishli konunchilik xujjatlarida turli xil jarima, ustamalar belgilangan, lekin ularni tulash, shartnomani tuligicha bajarishdan ozod kilmaydi. SHu sababli, kuupincha, konun-larga binoan bir tomondan jarimalar tulansa, ikkinchi tomondan yetkazilgan zararlarni koplash shartnomalarda belgilab kuyiladi. Masalan, real bajarish shartnomada mol yetkazib beruvchiga uning tomonidan yul kuyilgan kamomadni tuldirish majburiyatini yuklash orkali amalga oshiriladi, fakat xaridor uzi bundan voz kechmaguncha. Agar shartnoma muddati tegamagan bulsa, mol yetkazib beruvchi, shu muddat ichida tegishli maxsulot kamomadini tuldirib kuyishi kerak. Fakat maxsulot assortimenti belgilanganidan bulishi kerak.

Tashish shartnomalari buyicha intizomni ta'minlash transport konunchiligida nisbatan nikrok belgilangan.

Kurilishda - xar bir kechiktirilgan kun uchun ularni xakikiy ishga tushurilguniga kadar smeta kiymatiga nisbatan % xisobida amalga oshiriladi.

Olimlarning ta'kidlashicha shartnoma intizomining buzilishi xolatlarini ikki tomon uchun xam real bajarilishni ta'minlovchi jarima va zararlarni koplashdan bulak xukuk berilmagani bilan boglanadi.

Frantsuz xukuk va majburiyatlari umumiy nazariyasida aytilganidek,- «sud karzdorga uz majburiyatini yuklata ekan, agar baja-rishdan voz kechsa, xar bir kechiktirilgan vakt uchun pul jarimasiga tortilishini kushib kuyadi. SHunday kilib karzdorlar shunday karz yuki ostida koladiki, u chuzilgan sari usib borishi anik va u ulkan bulib ketish extimoli bor». (Godeme ye. Obsh.teor.obyaz. M,1948)

Jarima majburiyatlarning buzilishi xolatlarida kullanila-digan xolatlarida kullaniladigan murvat bulib, kni kullash va undirish shartlari xukukiy tashkilotlar tomonidan belgilab kuyiladi. Jarima karzdor tomon majburiyatlari bilan uning manfaatlari urtasida tafovut tugilganda katta rol uynaydi. Bunga yorokin misol-bu arendatorning u egallab turgan maydonni bushatib berish majburiyati.

Tegishli tartibda bajarmaslik xam majburiyatlarni buzgan tomon uchun turli okibatlarni keltirib chikaradi. Masalan, shartnoma shartlari-maxsulot yetkazib berish buyicha.

SHartnomalarning bajarilishini monitoring qilish tartibi va umumiy javobgarlik O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Maxkamasining «Qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishida shartnomaviy munosabatlarni takomillashtirish va majburiyatlarning bajarilishi uchun tomonlarning javobgarligirni oshirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi 2003 yil 4sentyabrdagi 383-sonli Qarori asosida tartibga solinadi.

Kontraktatsiya shartnomasiga muvofiq topshirilgan (yuklab jo'natilgan) qishloq xo'jaligi mahsuloti uchun haq to'lashdan asossiz bosh tortilganda (xo'jalikka tegishli summalarni, belgilangan ustamalarni ham qo'shib, o'z vaqtida hisoblab o'tkazmaganlik, hisob-kitoblarning aktsept shaklida esa to'lov topshirig'i aktseptini asossiz to'liq yoki qisman rad etganda) tayyorlov tashkiloti xo'jalikka to'lanmagan summani o'zi to'lashdan bosh tortgan summaning 15 foizi miqdoridagi jarimani to'laydi. Tayyolov tashkiloti jarimadan tashqari xo'jalikka muddati o'tkazib yuborilgan har bir kun uchun belgilangan muddatda to'lanmagan summaning 0,4 foizi miqdorida, biroq muddati o'tkazib yuborilgan summalarning 50 foizidan ortiq bo'lmagan penya to'laydi.

Tovar-transport hujjatini rsmiylashtirish rad etilganligi yoki noto'g'ri rasmiylashtirilganligi uchun aybdor tomon boshqa tomonga tovar-transport hujjatini rsmiylashtirish rad etilganligi yoki noto'g'ri rasmiylashtirilganligining har bir holati uchun eng kam oylik ish haqi miqdorida jarima to'laydi.

YUklab jo'natilgan tovarlarga to'lov yoki tovar-transport hujjatining nusxasi belgilangan muddatda yuborilmaganligi yoki tovar yuklab jo'natilganligi to'grisida boshqa axborot taqdim etilmaganligi uchun aybdor tomon har bir holat uchun tovar qiymatining 1 foizi miqdorida jarima to'laydi.

Agar yuklab jo'natilgan mahsulot (bajarilgan ishlar yoki ko'rsatilgan xizmatlar)ning sifati, assortimenti, sorti standart talablariga, texnik shartlarga,

namunalarga (etalonlarga) yoki shartnomada belgilangan boshqa shartlarga javob bermagan taqdirda, ayyobdor tomon sifati zarur darajada bo'lmagan mahsulot (bajarilgan ishlar yoki ko'rsatilgan xizmatlar) qiymatining 20 foizi miqdorida jarima to'laydi.

Nazorat va takrorlash uchun savollar:

- 1. Tayyorlov, xizmat ko'rsatuvchi tashkilotlar o'rtasida shartnomalar tuzish necha bosqichdan iborat?*
- 2. SHartnoma bajarilishida umumiy holatlardagi qanday javobgarlik bor?*
- 3. Moddiy-texnika resurslari yetkazib berish va xizmatlar ko'rsatish bo'yicha shartnomada nazarda tutilgan majburiyatlar bajarilishi rad etilganligi uchun qanday mulkiy javobgarlik mavjud?*
- 4. Belgilangan assortiment va turlarda, muddatlarda topshirishdan asossiz buyin tovlagan xo'jalik uchun qanday javobgarlik bor?*
- 5. Tayyorlov, xizmat ko'rsatuvchi tashkilotlar bilan shartnomalar tuzish muddatlari qanday?*
- 6. Qishloq xo'jaligi mahsuloti uchun haq to'lashdan asossiz bosh tortilganda qanday mulkiy javobgarlik mavjud?*

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

ASOSIY ADABIYOTLAR

1. I.A.Karimov. «O'zbekiston iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish yo'lida». T. 1995.
2. «Qishloq xo'jaligida islohotlarni chuqurlashtirishga doir qonun va me'yoriy hujjatlar to'plami» (1-,2-kitoblar). T. 1998.
3. O'zbekiston Respublikasining «Xo'jalik yurituvchi sub'ektlar faoliyatining shartnomaviy huquqiy bazasi to'g'risida»gi Qonuni. 1998 yil 29 avgust.
4. O.Olimjonov va b. Fermerlik faoliyatining huquqiy va moliyaviy asoslari. T. «Universitet», 2005.
5. Qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishida shartnomaviy munosabatlarni takomillashtirish va majburiyatlarning bajarilishi uchun tomonlarning javobgarligini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida Vazirlar Mahkamasining qarori (2003 yil 4 sentyabr 383-son).
6. Qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishida shartnomaviy munosabatlarni takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida Vazirlar Mahkamasining 2003 yil 30 oktyabr 476-son qarori.

QO'SHIMCHA ADABIYOTLAR

1. O'.P.Umrzaqov va b. Fermer xo'jaligi iqtisodiyoti. – T.: "Iqtisod-moliya"

- 2007.
2. A.Abdullaev va b. Biznes reja. – T.: «Moliya» 2002.
 3. B.Salimov va b. Dehqon va fermer xo'jaliklari iqtisodiyoti. – T.:TDIU, 2004
 4. Dodoboyev YU.T. va b. Fermer xo'jaliklari iqtisodiyoti. – T.: 2005 (Quvasoy).
 5. R.Xakimov va b. Agrosanoat majmui iqtisodiyoti. – T.:TDIU, 2004
 6. B.Salimov va b. Qishloq xo'jaligi infratuzilmasi iqtisodiyoti. – T.:TDIU, 2004.
 7. O'zbekiston Respublikasining Mehnat kodeksi. T.: 1996.
 8. Aminov M. Ish yuritish. T. 2000.
 9. O'zbekiston qishloq va suv xo'jaligi vazirligi «Biznes reja tuzish bo'yicha tavsiyalar» T. 2000